

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Geografiya kafedrası

Qo`lyozma huquqida

Samiyev Uchqun Abdullajonovich

Jahon aholisi joylashuvi va urbanizatsiya

5440500- geografiya ta`lim yo`nalishi bo`yicha
akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ish rahbari: katta o`qituvchi Z. A. Temirov

Andijon - 2014 yil

KIRISH.....	3
BIRINCHI BOB. JAHON AHOLISI JOYLASHUVINING O'ZIGA	
HOS HUSUSIYATLARI	5
I.1 Aholningi hududiy joylashuviga ta'sir etuvchi omillar.....	5
I.2 Aholining dunyo hududlari bo'ylab joylashuvi va uning omillari.....	12
I.3 Jahon aholisining qit'alar bo'yicha joylashuviga hos hususiyatlar.....	19
IKKINCHI BOB. URBANIZATSIYA VA AHOLI JOYLASHUVI.....	30
II.1 Shahar aholi punktlarining rivojlanish xususiyatlari.....	30
II.2 Urbanizatsiya jarayonining hududiy tafovutlari va sabablari.....	39
II.3 Urbanizatsiya jarayonining ijtimoiy –iqtisodiy oqibatlari.....	51
HULOSA.....	56
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	58

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Aholining hududiy joylanishi – yer yuzining kishilar tomonidan o'zlashtirilishi bilan bog'liq bo'lgan juda uzoq tarixiy jarayonning natijasidir. Yer sharinig turli qisimlarida, turli mamlakatlarda aholining hududiy joylashishi va zichligi tarixiy, ijtimoiy – iqtisodiy va tabiiy omillar ta'sirida vujudga keladi. Bu asosiy omillar dunyoning turli qisimlarida hududiy va davr nuqtai nazardan bir xil emas. Shuning uchun ham turli mintaqalarda, uning zichligida katta farqlar mavjud. Odatda aholining hududiy joylashuvini har bir kvadrat kilometrga to'g'ri keladigan aholi soni bilan ko'rsatiladi. Yer sharida aholining o'rtacha zichligi har kv km ga 48,5 kishi to'g'ri keladi.

Alohida e'tibor qaratish lozim bo'lgan navbatdagi eng muhim ustuvor vazifa - qishloqda turmush darajasini yuksaltirishga, qishloqlarimiz qiyofasini o'zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli va birbiri bilan chambarchas bog'liq keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirish, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o'rne va ahamiyatini tubdan qayta ko'rib chiqish, fermer xo'jaliklari rivojini har tomonlama qo'llabquvvatlashdan iboratdir. Shu jihatdan mamlakatda qishloqlarga shahar turmush tarzini olib kirishda aholi joylashuvini hamda urbanizatsiya jarayonini butun jahon miqyosida o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi¹.

BMI obyekti. Jahon aholisini o'rganish ushbu BMI ning obyektini belgilaydi.

BMI predmeti. Jahon aholisini joylashuvi, zichligi hamda urbanizatsiya jarayonini geografik jihatdan o'rganishdan iborat.

BMI maqsadi. BMI ning maqsadi jahon aholisi joylashuvi va urbanizatsiya jarayonini o'rganish va bu bilan bog'liq muammolarni o'rganish atroflicha yoritib berishdan iborat.

Maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** belgilab olindi:

- Aholi joylashuviga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish;
- Aholini dunyo hududlari bo'yicha joylashuvini yoritish;
- Shaharlar va ularning rivojlanishini tahlil qilish;
- Shaharlar rivojlanishini hududiy tafovutlari va yuzaga kelish sabablarini aniqlash;
- Shaharlar rivojlanishi bilan bog'liq ijtimoiy-ijtimoiy oqibatlarini ilmiy asosda o'rganish.

¹ Karimov I. A. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.-T.: O'zbekiston, 2009

BMI nazariy uslubiy asoslari- BMI ni yoritish jarayonida demografik – statistik guruhlash, taqqoslash, bashoratlash uslublari qo'llanildi. BMI ni yozishda mavjud ilmiy adabiyotlardan hamda internet ma'lumotlaridan keng foydalanildi.

BMI ning ilmiy yangiligi eng avvalo jahon aholisi joylashuvi va urbanizatsiya jarayoni BMI darajasida ilk bor o'rganilishida o'z aksini topgan. Bundan tashqari BMI ning ilmiy yangiligi quyidagi masalalarni o'rganishda ham o'z ifodasini topgan:

- jahon aholisi joylashuvi omillari yoritib berildi;
- jahon aholisini mintaqalar bo'yicha joylashuvi hususiyatlari o'rganildi;
- shaharlar va ularning rivojlanish qonuniyatlari ilmiy asosda tahlil qilindi;
- shaharlar rivojlanishi bilan yuzaga keluvchi muammolarni bartaraf etish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. BMI kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, u 59 betni o'z ichiga oladi. Matnda 6 ta jadval, 3 ta diagrammi va 1 ta rasm-sxema keltirilgan.

BIRINCHI BOB. JAHON AHOLISI JOYLASHUVINING O'ZIGA HOS HUSUSIYATLARI

I.1 Aholningi hududiy joylashuviga ta'sir etuvchi omillar

Aholi punktlari aholi joylashuvining va xo'jalik faoliyatining hosilasi sifatida turli ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy geografik omillar ta'sirida shakllanadi. Avvalo aholining yer yuzida tarqalishi va turli tabiiy sharoitlarga muvofiq xo'jalik tizimini, binobarin joylashuv tizimlarini shakllantirishi, hududiy rivojlantirish keyingi bosqichlarda hududlardagi aholi punktlari turlarining shakllanishiga olib keladi. Ta'kidlash joizki aholi punktlarining shakllanishi va rivojlanishi aholining hududiy joylashuvi jarayonidan kelib chiquvchi ijtimoiy hodisadir. Shunga ko'ra aholi punktlarining turli hududlarda shakllanishiga ta'sir etuvchi va rivojlanishini belgilovchi omillar aholining hududiy joylashuvini belgilovchi omillar bilan bog'liqdir. Demak aholi punktlarining turli mintaqalardagi tafovutlarini tahlil qilish mohiyatan aholining turli hududlarda joylashuvini tahlil qilish bilan barobardir. Yer yuzida hozirgi kunda inson qadami va ta'siri sezilmaydigan hududlar qolmagan, lekin bir joyda avlodlar almashinuvi davomida muqim istiqomat qilishi va xo'jalik faoliyatini shakllantirish uchun bir qancha omillar ta'sir ko'rsatadiki, bu hol yer yuzida kishilar yashaydigan hududlar doirasini toraytiradi va asosiy joylashuv

mintaqalarini

hosil

qiladi.

Yer yuzida aholi juda notekis joylashgan. Butun aholining 70% ga yaqin qismi quruqlikning 7% qismida yashaydi. Shu bilan bir vaqtda odam yashaydigan quruqlikning yarmiga yaqinida aholining o'rtacha zichligi 1km^2 ga 5 kishidan kam to'g'ri keladi. Aholi tomonidan butunlay o'zlashtirilmagan yerlar quruqlik maydoning 15% ini tashkil etadi. Insonlar tomonidan o'zlashtirilmagan yoki zaif o'zlashtirilgan yerlar asosan tabiiy sharoit noqulay o'lkalardir.

Aholi

joylashuviga

4

omil

ta'sir

ko'rsatadi.

Birinchisi – tabiiy sharoit. Shubhasiz, sahro, muzlik zonalari, tropik o'rmonlar, baland tog'liklar kabi hududlar kishilar xayoti uchun qulay sharoitga ega emas. Bunday hududlar barcha materiklar va qit'alarda mavjud ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, albatta bunday joylar aholining doimiy yashamaydigan yoki qisman faoliyat yuritadigan hududlariga kiradi. Masalan Osiyo qit'asida, baland tog'li mintaqalarda ham aholi qadimdan yashab keladigan va turli shakldagi aholi punktlari vujudga kelgan joylar bor, bundan tashqari sahrolarda ham aholi ko'chmanchi tarzda hayot kechiradi. Bunday hududlarda aholi zichligi juda siyrak bo'lsada ma'lum darajada aholi punktlari shakllangan va ular tabiiy sharoitga muvofiq bunyod qilinganligi bilan e'tiborga loyiqdir. Tadqiqot mavzusi aholi punktlarining turli tabiiy sharoitlarda shakllanishini o'rganish bo'lganligi uchun har qanday aholi siyrak hududlarda ham aholi punktlarining shakllanish jarayoni e'tiborga olinishi zarur. Binobarin hozirgi kunda tabiiy sharoit qulay bo'lgan hududlardagi aholi punktlarining shakli va xususiyatlari bir-birlariga o'xshash bo'lib ular orasidagi farqlar asosan aholiga yaratilgan qulayliklarning texnologik darajasi bilan belgilansa, aholi an'anaviy turmush tarzi bilan yashab keladigan sharoiti noqulay va aholi siyrak joylashgan bunday hududlardagi aholi punktlarining shakllanishi xususiyatlarini o'rganish alohida qiziqish uyg'otadi, zero yuqorida ta'kidlanganidek, aholi punktlari, ayniqsa, qishloqlar xalqlarning milliy – etnik qiyofasini, qadriyatlarini o'zida aks ettiradi. Shunga ko'ra shimol xalqlari, sahrolarda, baland tog'liklar va tropik o'rmonlarda yashovchi oz sonli xalqlarning turar joylari, uylarining shakllari va xususiyatlari haqida so'z yuritilganda, ularni tabiiy sharoitga muvofiq taqqoslash va xulosa chiqarish qadimda aholining tabiiy sharoitga qanchalik moslashganligi haqida tasavvur qilishimiz mumkin bo'ladi. Osiyo sahrolari, dashtlarida ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanuvchi va tundra zonasida yashovchi xalqlarning turar joylaridagi o'xshashlik belgilari ularni qurishda ishlatiladigan materiallar, va shaklidir. Chorvadorlar o'tovlarining shakli cho'l va dasht tabiati uchun mukammal yechimga ega, shamollar va yog'in sochidan sovuq va issiqqa chidash beruvchi material - jundan bosilgan kigiz qoplama asosiy ahamiyatga egadir. Ayni material sahrolarning qattiq sharoitida odamlarning faoliyat yuritish uchun imkoniyat bergan. SHimol xalqlarida qoplama material

siaftida hayvon terilari ishlatilgan. Ikkala holatda ham uy tayanchini engil va oson yig'iladigan yog'och va suyaklar tashkil qiladi.

Ikkinchi omil– quruqlikda odamlarning tarqalishiga tarixiy xususiyatlarning ta'siri. Zamonaviy odamlarning shakllanishi 40-30 ming yil oldin Janubiy-g'arbiy Osiyoda, Shimoli-sharqiy Afrika va Janubiy Yevropada boshlangan. Bu hududlardan odamlar Eski dunyo bo'ylab tarqalganlar. Eramizdan oldingi 30 va 10 ming yilliklar oralig'ida odamlar Shimoliy va Janubiy Amerikaga tarqalganlar, bu davr oxiriga kelib Avstraliyaga ham o'tganlar. Bu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, Yer yuzida odamning paydo bo'lishi va tarqalishi haqida ilmiy bahslar hamon davom etmoqda. Bu borada ikki xil yondashuv bo'lib, birinchisi odamlarning ya'ni "homo sapiens" ning bundan 50 ming yillar oldin qadimgi gominidlardan bitta hududda, aynan Sharqiy Afrikada ajralib chiqqanligi va shu hududdan yer yuziga tarqalganligi (monotsentrizm) bo'lsa, ikkinchisi odamlarning yer yuzidagi turli rayonlarda paydo bo'lganligi (politsentrizm) haqidagi fikrlardir. Har ikki fikr uchun ham o'ziga xos dalillar mavjud. Qadimgi odamlarning manzilgohlari turli qit'alarda topilgan. Yer yuziga insoniyatning tarqalishi uzoq yillar davom etganligi, bu tarqalishning murakkab geografik yo'nalishlarga ega ekanligini hisobga olsak, bu borada tadqiqotlar hali ko'p davom etishi mumkinligiga amin bo'lamiz. Yer yuzi aholisining qadimgi manzilgohlaridan topilgan buyumlarga qarab xulosa chiqaradigan bo'lsak, odamlar yer yuziga uzluksiz tarqala borganligini ko'ramiz. Monotsentrik nazariya bo'yicha qadimgi odamlar paleolit davrining oxirida Afrikadan Yevropa va Osiyoga undan Bering bo'g'izi orqali Amerikaga, Janubiy-SHarqiy Osiyo orqali Avstraliya va Okeaniyaga tarqalgan. Aholining tarqalishi va uzluksiz ko'chib yurishiga asosan qulay tabiiy sharoit va oziq-ovqat topish tashvishi majbur qilgan. Yer yuzida odamlarning ko'payishi, oziq-ovqat topishning yangi usullari kishilarning o'zlariga ma'qul kelgan hududlarda muqim joylashishlariga sabab bo'lgan. Agar qadimgi davrlardagi odamlarning ko'chib yurishiga yuqorida ta'kidlangan omillar sabab bo'lgan bo'lsa, kishilik jamiyati rivojlanishining keyingi bosqichlarida yangicha sabablar paydo bo'ldi va Yer yuzi aholisi tarkibining murakkablashuviga sabab bo'ldi.

Uchinchi omil– zamonaviy demografik vaziyatdagi xalqlar (masalan, Bangladeshda mamlakat hududi kichik bo'lganligi uchun aholi zichligi 1 km² ga 750 kishiga to'g'ri keladi).

To'rtinchi omil – Ijtimoiy va iqtisodiy sharoitning kishilar xayotiga ta'siri. Bu ta'sirning bir ko'rinishi sifatida aholining ko'pchilik qismining dengiz va okean qirg'oqlari bo'ylab joylashishi tendentsiyasida ko'rishimiz mumkin.

Yuqorida ta'riflangan omillar mamlakat va xalqlarning iqtisodiy ijtimoiy rivojlanishi natijasida murakkablashib boradi, kishilarning uzluksiz ko'chib yurishga majbur etadi. Aholi joylashuvini tavsiflash, asosiy xususiyatlar haqida aniq tasavvur hosil qilishda ikki ko'rsatkich – aholi zichligi va Shahar hamda qishloq aholisining tafovuti ajratib ko'rsatiladi. Aholi

zichligining ko'rsatkichi – bu aholining maydonga nisbatini ifodalovchi matematik hisobigina emas. Unda xo'jalikning umumiy ahvoli va yo'nalishi, u yoki bu tipdagi tabiiy sharoitning kishilarning ishlab chiqarish faoliyati uchun yaroqliligi aks etadi. Industrial rivojlangan mamlakatlarda aholi o'rtacha zichligi Shahar aholisi salmog'ining yuqoriligi tufayli yerlardan foydalanishni aks ettirmaydi. Shuning uchun ko'pincha umumiy zichlikdan tashqari, qishloq aholisining zichligi alohida aniqlanadi. Buni butun mamlakat hududi yoki qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan va foydalanishga yaroqli hududlarga nisbatan ham olish mumkin. Yer yuzasida aholi juda notekis joylashgan. Zichligi ming kishidan ortiq bo'lgan gavjum hududlardan tashqari, odam umuman yashamaydigan hududlar ham mavjud. Inson tomonidan o'zlashtirilmagan hududlar quruqlikning 15% ni tashkil etadi. Bunday joylarga qutbyoni hududlar (doimiy yashash hududlari 78^o shimoliy kenglikdan janubda va 54^o janubiy kenglikdan shimolda joylashgan). Ba'zi baland tog' mintaqalari aholidan xolidir. (Bunga dengiz sathidan 5000 metr balandlikdagi barcha hududlarni kiritishimiz mumkin). SHuningdek Markaziy, Janubiy-g'arbiy Osiyo va Shimoliy Afrikaning ulkan sahrolari ham odam yashamaydigan joylardir.

Yer yuzi aholisining ko'pchiligi tekisliklarda istiqomat qiladi. Insoniyatning $\frac{3}{4}$ qismi dengiz sathidan 500 m balandlikkacha bo'lgan pasttekislik va tekisliklarda joylashgan. Bunday hududlar esa quruqlikning 27,8 % ni tashkil etadi. Yevropa, Avstraliya va Okeaniyada bunday hududlarda aholining 9/10 qismi yashaydi. Afrika va Janubiy Amerikada aholining anchagina qismi dengiz sathidan 500-1500 m (mos ravishda 34,6 va 27,5%) bo'lgan hududlarda istiqomat qiladi. Boliviya, Afg'oniston, Efiopiya, Meksika va Peruda aholining 2/3 qismi dengiz sathidan 1000 m balandlikda yashaydi. Niderlandiya, Polsha, Frantsiya, YAponiya, AQSH va boshqa qator davlatlarda barcha aholi punktlari 500 m. lik chegaradan yuqoriga ko'tarilmagan. (Niderlandiyada aholining 2/5 qismi dengiz sathidan past bo'lgan joylarda yashaydi).

Yer yuzi aholisining balandlik mintaqalarida taqsimlanishi. (S. Bruk)

1-jadval

Dunyo hududlari	Dengiz sathidan balandlik						Yashash hududi-ning oʻrtacha balandligi	Hududi-ning oʻrtacha balandligi
	200 m dan past	200-500 m	500-1000 m	1000-1500 m	1500-2000 m	2000 m dan baland		
	aholi % da						metrda	
Yevropa	68,8	23,5	7,2	0,5	-	-	170	300

Osiyo	56,5	23,5	11,7	4,9	2,5	0,9	320	950
Afrika	32,5	24,1	20,8	13,8	6,8	2,0	590	750
SHimoliy AmYerika	46,9	33,3	7,9	4,1	4,0	3,8	430	700
Janubiy Amerika	42,3	15,0	22,8	4,7	4,2	11,0	645	580
Avstraliya va Okeaniya	72,9	17,8	8,4	0,9		-	95	350
Butun quruqlik (Antarktida va Gren.dan tashqari)	56,2	24,0	11,6	4,4	2,3	1,5	320	725

Jadval <http://eduportal.uz> saytidan olindi

Aholining balandlik mintaqalari bo'ylab notekis joylashishiga yana bir sabab Yer yuzi quruqlik qismlaridagi o'rtacha balandliklarning turlicha ekanligidir. (Osiyoda 950 m, SHimoliy AmYerikada 700-750 m, Yevropada 300 m). Ammo bu aholining notekis joylashuviga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy sabab emas. Masalan, Osiyo qit'asida o'rtacha balandlik AmYerikanikidan yuqori, lekin aholisining ko'pchiligi pasttekisliklarda yashaydi. Bu holatni Osiyo balandlik mintaqalarining yaxshi o'zlashtirilmaganligi bilan tushuntirish mumkin. shuning uchun ham Osiyo aholisining $\frac{3}{4}$ qismi Xitoy, Hindiston, Hindixitoy va boshqa mintaqalarning ulkan pasttekisliklarida nihoyatda zich holatda yashamoqda. Buni YAponiya misolida ham ko'rishimiz mumkin. Aholisining son jihatdan ortiqligi kuzatilgani holda Yer yuzasining katta qismi dengiz sathidan 500 m balandlikda joylashganligiga qaramay, bu hududlarda aholi zichligi past, 1000 m balandlikda esa deyarli odamlar yashamaydi.

1-diagramma



Diagramma <http://www.worldpopulationbalance.org> saytidan olib qayta ishlandi

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqib aholi punktlarining shakllanishiga kishilarning xo'jalik faoliyatini doimiy olib borishi mumkin bo'lgan hududlarda yuzaga keladigan omillar ta'sir etadi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Jamiyat taarqqiyotining turli davrlarida ijtimoiy boylikning tshplanish hududlari turli tabiiy geografik sharoitga ega bo'lgan hududlarda taqsimlangan va yirik davlatlar, impYeriyalarning vujudga kelishiga olib kelgan, bu esa o'z navbatida aholi punktlarining yuqori darajada rivojlanishiga sabab bo'ladi. Tabiiy sharoit omili aholining yashash tarziga doimo ta'sir ko'rsatar ekan, aholi punktlarining hududiy shakllanishiga ham uzluksiz ta'sir etuvchi omil hisoblanadi. Tabiiy sharoit omillarining ta'siri jamiyat taraqqiyoti va ishlab chiqarish usulining takomillashuviga mos ravishda turli darajada namoyon bo'ladi. Masalan, kishilarning oziq – ovqat va boshqa ehtiyoj mahsulotlarini etishtirish darajasidagi taraqqiyot bosqichida tabiiy sharoit omillarining ta'siri kuchli bo'lgan. Buni qadimiy sivilizatsiyalarning faqat yirik daryolar quyi qismida shakllanganligi misolida ko'rdik. Kishilarning suvga bo'lgan ehtiyojini qondirish doirasi daryodan suvni bevosita chiqara olish masofasi bilan belgilangan. Shu bilan birga boshqa hududlarga suvni etkazib borish ham, yer yuzasining tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan. Bundan tashqari tabiiy sharoitning boshqa omillari ham insonlarning o'z xo'jalik faoliyatlari uchun eng qulay bo'lgan joylardagina o'rnashib doimiy yashash hududlarini tashkil qilishiga sabab bo'lgan edi. Texnika taraqqiyoti, fanning yutuqlari va jamiyat tajribasi aholining avval noqulay hisoblangan hududlarga ham tarqalishiga va aholi punktlarini bunyod qilishiga olib keldi va bu holat texnologik taraqqiyot darajasida kengayib boravYeradi. Endilikda odamlar uchun eng noqulay bo'lgan tabiiy sharoitli hududlarda ham yirik aholi punktlari, Shaharlar tizimlari mavjud.

Binobarin, aholi punktlarining shakllanishiga ta'sir etgan tabiiy sharoit omillarini tarixiy nuqtai nazaridan quyidagi tarzda keltirish mumkin:

- Tabiiy suv havzalari va ularning ta'sirida vujudga kelgan unumdor tuproqli hududlar;
- Dengiz bo'ylaridagi kemalar to'xtashi uchun eng qulay bo'lgan qirg'oqlar;
- Quruqlikdagi savdo yo'llarining atrofidagi tabiiy suv havzalarining mavjudligi;
- Yer yuzasining tuzilishi va balandlik mintaqalarida aholi xo'jalik faoliyati uchun etarli sharoitga ega hududlar;
- O'simlik qoplami, asosan keng bargli o'rmonlar zonasi;
- Yer osti foydali qazilmalarining topilishi.

Zamonaviy aholi punktlarining shakllanishi tabiiy sharoit omillariga butunlay bog'liq emas. Iqtisodiy rivojlanishning yuqori darajasidagi davlatlar o'z tabiiy resurslardan foydalanish imkoniyati mavjud hududlarda barcha talablarga javob beradigan Shaharlar bunyod qilish salohiyatiga egadirlar. Ayniqsa, foydali qazilma konlarining katta zahiralari topilgan joylar, yoki

sun'iy sug'orish tizimini vujudga keltirish natijaisda o'zlashtirilgan cho'l va dasht zonalarida hozirgi kunda aholi punktlarining turli shakllari mavjud. Lekin bu aholi punktlari ham tabiiy sharoit omili hisobga olingan holda qurilishi talab etiladi.

I.2 Aholining dunyo hududlari bo'ylab joylashuvi va uning omillari

Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, yer sharida aholi yashab kelgan maskanlar, areallarning ko'pchiligi juda qadimdan boshlab shakllanib kelgan. Dunyo hududlari bo'ylab aholining joylashuvi haqidagi dastlabki ma'lumotlar eramizdan 5 ming yil oldingi davrga taalluqli bo'lib, ushbu davrda dunyo aholisining 66 %i (20 mln. kishi) Xorijiy Osiyoda, 17 %i (5 mln. kishi) Afrikada, 10 %i (3mln. kishi) xorijiy Yevropada 3 %i (1 mln. kishi) MDH davlatlarida, 3 %i (1 mln. kishi) Shimoliy va Lotin Amerikasida hamda 1 %i (0,5 mln. kishi) Avstraliya va Okeaniyada joylashgan. Eng qadimgi aholi maskanlari inson yashashi uchun zarur biologic resurslar mavjud bo'lgan joylarda, ya'ni osiyoning janubi va Shimoliy Afrikada O'rta dengizdan to Tinch okeanigacha bo'lgan hududlarda joylashganlar. Bu hududlarda aholi juda uzoq vaqt ovchilik bilan shug'ullangan. Keyinchalik ushbu hududlarda cho'llashish jarayonlari kuchaygan. Aholini ovchilik bilan yashashlari uchun imkoniyatlari qisqarib ketgan.

Eramizning boshlarida aholi asta sekin dexqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullana boshlaydi. Moddiy ne'matlarni o'zlari mehnat qilib yaratishga o'tadilar. Xo'jalik yuritishning ishlab chiqarish turi yetakchilik qila boshlaydi. Aholi ma'lum joylarda o'troq bo'lib yashaydilar. Natijada, avval qishloq aholi maskanlari va keyinchalik Shaharlar barpo bo'la boshlaydi. Aholining turmush tarsi, ovqatlanishi yaxshilana boradi. Inson hayotida ijtimoiy o'zgarishlar sodir bo'la boshlaydi. Yozuv shakllanadi, fan va tibbiyot, madaniyat rivojlana boradi. Aholining yashash sharoiti yaxshilanadi. O'lim sur'ati kamaya boshlaydi, aholining o'rtacha umr ko'rish davri ortib boradi. Natijada yer shari aholisi soni, aholi yashash punktlari ko'paya boshlaydi. Aholi zichligi ayniqsa, dexqonchilik bilan shug'ullanishi uchun tabiiy imkoniyatlari mavjud, sug'oriladigan yerlarda chorvachilik bilan shg'ullanish imkoni bor hududlarga nisbatan yuqori bo'lgan. Masalan: Nil, Frot, Dajda, Gang, Xuanxe daryolari hamda O'rta dengiz sohillarida eramizning boshida aholi zichligi 1 km² ga 10 kishini tashkil etgan. Ana shu davrda ko'chmanchi chorvachilik rivojlangan Osiyo hamda Afrikaning cho'l va chalacho'l zonalarida aholi zichligi 1 km² ga 1 kishidan to'g'ri kelar edi.

Jamiyat taraqqiyoti, ishlab chiqarishning rivojlanishi, jahon mamlakatlari demografik vaziyatid bir qator o'zgarishlarga olib keldi. XIX – XX asrga kelib, yer shari aholisi juda yuqori sur'atlar bilan ko'paya boshladi. Aholining dunyo hududlari bo'ylab joylashuvida ham keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. Aholi zich hududlardan ayniqsa, Yevropadan Amerikaga va Okeaniya hududlariga ko'plab aholi ko'chib ketdi. Keying ikki ming yillikda yer yuzida aholi joylashuvi

keskin o'zgardi. Eramizning dastlabki yillarida sayyoramiz aholisining 82,7% I Yevropa va Osiyo hududlarida joylashgan bo'lsa, 2000 yilga kelib bu ko'rsatkich 15% ga kamaydi va 67,7% ni tashkil etdi. Amerika, Okeaniya va Avstraliyada istiqomat etuvchi aholi hissasi esa ortib bordi. Eramizdan keyingi mingginchi yilda dunyoda 300 mln. aholi istiqomat etgan bo'lsa, uning 63,9% I Xorijiy Osiyoda, 14,8%i Xorijiy Yevropada, 13,1 % I Afrikada, 3,3%i MDH mamlakatlarida, 4,6 %i Amerika va 0,3%i Avstraliya va Okeaniyada yashagan. 2000 yilda esa dunyo aholi soni 6 mlrd. 55mln. ga yetdi va uning 59,3%, Xorijiy Osiyoda, 8,4 %i Xorijiy Yevropada, 13,0 % i Afrikada, 4,8 %i MDH mamlakatlarida, 14,0 % i Amerika va 0,5 %i Avstraliya va Okeaniya mamlakatlarida istiqomat etadilar. Keyingi ming yillikda Amerika, Avstraliya va Okeaniya hamda MDH mamlakatlarida istiqomat qiluvchi aholining salmog'i 5 marta ko'paygan.

Shunday qilib, hozirgi davrda yer shari hududlari bo'ylab aholi notekis joylashgan. Sayyoramizda aholi juda zich (1 km^2 maydonga 1000 kishi) yashaydigan hududlar bilan bir qatorda, aholi yashamaydigan hududlar ham uchraydi. Bu yerda harorati juda past, suv yoq va boshqa sabablar mavjud. Bunday hududlar yer sharidagi quruqlikning 10 % ini tashkil etadi. Ularga Shimoliy va Janubiy qutblar, balandligi 5000 m dan ortiq tog'lar va sahrolar kiradi. Yer kurrasidagi quruqlikning 50 % I esa aholi yashashi uchun tabiiy sharoitlar nisbatan pastroq bo'lib, ularda aholi siyrak- 1 km^2 ga 1 kishidan joylashgandir. Ushnu hududlarga tundra, o'rmon tundra, shimoliy tayga, cho'l va chala cho'l, nam ekvatorial o'rmonlar kiradi. Quruqlikning 25 % ida aholi zichligi 1 km^2 ga 1-10 kishini tashkil etib bu yerlarda aholi nisbatan siyrakroq joylashgan. Yer shari ququqligining qolgan 15 % ida esa aholi zichligi 1 km^2 ga 10 kishidan oshadi.

Yer sharida aholi yashaydigan asosiy hududlar 78° shimoliy kenglik va 54° janubiy kengliklar orasida joylashgandir. Yer yuzida aholi eng zich joylashgan hududlar juda qadimdan madaniyat markazlari bo'lib kelgan Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo, Shimoliy Afrikadagi daryo vodiylari hamda Yevropadagi sanoat markazlari bo'lib, ular quruqlikning bor-yo'gi 7 % ini tashkil etadilar. Bu hududda jahon aholisining 70 % i joylashgan. Yer shari aholisining qariyb 80% i dengiz sathidan 500 metrgacha bo'lgan balandliklarda joylashgan. Bunday hududlar yer yuzidagi quruqlikning 28 % ini tashkil etadi.

Hozirgi davrda yer sharidagi quruqlikning inson yashashi mumkin bo'lgan qismida o'rtacha aholi zichligi 1 km^2 ga 49,4 kishidan to'g'ri kelmoqda. Agar aholi zichligi 1 km^2 ga 50 kishidan to'g'ri kelsa, aholi zichligi yuqori hisoblanadi. Aholi dunyo qit'alari bo'ylab ham juda notekis joylashgandir. Ma'lumotlarga qaraganda XXI asr boshlarida aholi zichligi 1 km^2 ga Osiyoda 75 kishi, Yevropada 70 kishi, Afrikada 22 kishi, Amerikada 19 kishi va Avstraliya hamda Okeaniyada 3 kishini tashkil etmoqda.

Yer yuzasida aholi juda notekis joylashgan. Doimiy aholisi mavjud hududlar 430 mln. kv. km doirasida 46 kishini tashkil etadi.

Shu vaqtning o'zida ushbu ko'rsatkich Osiyoda 116,3 kishi, Yevropada 102,5 kishini tashkil etgani holda, Afrikada 27,5, Shimoliy Amerikada 23,8 kishini, Janubiy Amerikada 19,6 hamda Avstraliya va Okeaniyada 3,7 kishiga teng. Umumlashtirib aytganda yer shari quruqlik yuzasining atigi 2 % da unda mavjud aholining 70 % i istiqomat qiladi. Aholi nihoyatda zich joylashgan mintaqalar qatoriga Janubi-Sharqiy va Sharqiy osiyo, Yevropa va AQSH ning shimoli-sharqiy qismi kiradi.

Datslabki uchta mintaqada aholi juda qadimdan joylashgan bo'lib, u hozirgi vaqtda juda yuqori darajada aholi zichligiga ega. Ushbu holat avvalo, bu yerda mehnatni ko'p talab qiluvchi sholichilikni qadimdan mavjudligi, qolgan mintaqalarda esa XVIII-XIX asrlarda yuz bergan sanoat inqilobi hamda undan keyingi davrda amalga oshirilgan industrlashtirish jarayoni bilan uzviy bog'liqdir. Insonlarning qadimdan okean va dengiz sohillarida joylashishiga intilishi ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Jahon bo'yicha aholi juda zich joylashgan hududlar qatoriga quyidagilar kiradi: Rur, Elzas va Lotoringiya hamda Parij London rayonlari, Shimoliy Italiya, Moskva rayoni, Donbass, Farg'ona vodiysi, sharqiy Xitoy, Hind-gang tekisligi, Yava oroli, Yaponiya orollari, Nil deltasi, AQSH ning shimoli-sharqiy rayonlari, Buyuk ko'llar rayonlari va San-San megopolisi.

2-jadval.

Dunyo hududlari bo'yicha aholi joylashuvidagi o'zgarishlar (1950-2013 yillar)

Ko'rsat kichlar	Aholi soni mln. kishi			Aholi zichligi kishi/km ²			Aholining o'sish sur'ati, %		
	1975	2000	2013	1975	2000	2013	1975	2000	2013
Afrika	414	820	1110	13,7	27,1	32	2,8	2,5	2,5
Osiyo	2406	3689	4298	75,7	116,1	136	1,9	1,3	1,0
Yevropa	636	729	742	29,4	31,7	36	0,5	-0,1	0,1
J. Amerika	320	515	617	15,6	25,1	30	2,1	1,4	1,8
Sh. Amerika	244	309	356	11,3	14,3	16	0,9	0,7	0,6
Okeaniya	21	28	39	2,5	3,3	4	2,1	1,3	1,4
Dunyo bo'y.	4081	6090	7162	30,1	44,9	52,0	1,7	1,3	1,15

Jadval <http://www.worldometers.info> sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Aholi siyrak tarqalgan hududlar yer quruqlik yuzasining ancha katta qismini egallaydi. Bunday mintaqalar qatoriga birinchi navbatda, tabiiy-iqlimiy sharoiti noqulay bo'lgan hududlar, cho'llar, tropic o'rmonlar, baland tog'lar, tundra muzlik hududlari va boshqalar kiradi.

Dunyo aholisi zich joylashgan mamlakatga Sharqiy Osiyoda joylashgan Xitoy Makaosi (Aomin) davlati qayd etiladi. Bu yerda aholi zichligi 1 km² maydonga 26221 kishini tashkil etadi. (2013 yil). Aholi zichligi bo'yicha keying o'rinlarda Singapur (7000), Xitoy-Gangkong (6181), Malta (1333), Maldiv orollari (1000) va boshqalar to'g'ri keladi.

3-jadval.

Dunyo mamlakatlarining aholi zichligi

1975 yil			2013yil		
№	Davlatlar	Zichlik	№	Davlatlar	Zichlik
Aholisi eng siyrak joylashgan mamlakatlar					
1	Gviana (Fransiya)	0,7	1	G'arbiy Sahroi Kabir	0,1
2	Botsvana	1	2	Namibiya	2
3	Mongoliya	1	3	Gviana (Fransiya)	2
4	Namibiya	1	4	Surinam	2
5	Liviya	1,5	5	Mongoliya	2
6	Mavritaniya	1,5	6	Liviya	3
7	Avstraliya	1,8	7	Mavritaniya	3
8	Gabon	2	8	Botsvana	3
9	Islandiya	2	9	Kanada	3
10	Kanada	2,3	10	Islandiya	3
Aholisi eng zich joylashgan mamlakatlar					
1	Malta	950	1	Makao-Xitoy	26221
2	Barbados	568	2	Singapur	7000
3	Bangladesh	533	3	Gongkong-Xitoy	6181
4	Bahrayn	411	4	Malta	1333
5	Maldiv orollari	400	5	Maldiv orollari	1000
6	Puerto-Riko	348	6	Bangladesh	981
7	Janubiy Koreya	345	7	Barbados	750
8	Niderlandiya	333	8	Bahrayn	700
9	Martinika	330	9	Falastin	609
10	Belgiya	321	10	Janubiy koreya	487

Jadval <http://www.worldometers.info> sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Aholisi eng siyrak joylashgan mamlakatlarga Mongoliya, Avstraliya, Kanada kabi mamlakatlar kiradi. Bu mamlakatlarda aholi zichligi har bir km² maydonga 2-3 kishi to'g'ri keladi.

Jahon mamlakatlarida aholi soni o'sib borishi bilan unga mutanosib tarzda aholi soni ham ortib boradi. Jumladan, aholi zichligi 1920 yilda dunyoning aholi yashaydigan qismida o'rtacha 1 km² hududga 13 kishini tashkil etgan bo'lsa, 1950 yilda 18 kishi, 1983 yilda 34 kishi, 1999 yilda 45 kishi va 2013 yilda 49,4 kishini tashkil etdi.

Aholi joylashuvida asosiy tabiiy omil bu suv resurslaridir. Insonning yashashi va ho'jalik yuritishda suv eng muhim vositadir. Dunyo aholisining 3/1 qismi dunyo okeani sohillari bo'ylab (okeandan 50 km uzoqlikda) joylashgandir. Bu hudud butun quruqlikning atigi 12 % ini tashkil etadi holos.dunyo aholisining yarmidan ko'pi esa Dunyo okeanidan 200 km uzoqlikda bo'lgan masofa hududida joylashgan. Yer shari bo'yicha dunyo okeani shollarida, daryo vodiylaridagi pasttekisliklarda yashovchi aholi salmog'i muntazam ortib bormoqda.

XX asr oxiri XXI asr boshlarida dunyo qit'alarining barchasida aholining 42-73 foizi dengiz sathidan 200 metr baland bo'lgan pasttekislikda joylashgan. Yer quruqlik yuzasining 15 % i umuman o'zlashtirilmagan va doimiy aholisi yo'q hududlar hisoblanadi.

Ayrim mamlakatlar aholi zichligining juda yuqori ko'rsatkichlari Singapur (5000 kishiga yaqin), Bangladesh (1000 kishiga yaqin), Niderlandiya (460), Korea Respublikasi (454), Belgiya, Yaponiya va boshqalariga 200 kishidan ortiq jami 40 mamlakat, juda past ko'rsatkichlar Rossiya, Kanada, Avstraliya, Mavritaniya, Liviya, Namibiya va boshqalarga hos. Aholi joylashuvidagi katta hududiy tafovutlar mavjud mamlakatlar qatoriga Rossiya, Kanada, xitoy, Braziliya, Misr, Turkmaniston, Tojikiston, Indoneziya kiradi.

4-jadval

XX asr oxirida dunyo aholisining balandlik mintaqalari bo'yicha joylashuvi

Materiklar	Dengiz sathidan baland mintaqada joylashgan aholi salmog'i (foizda)					
	200 m.gacha bo'lgan tekisliklar	200-500 m. gacha bo'lgan balandliklarda	500-1000 m. bo'lgan past tog'larda	1000-2000 m. bo'lgan o'rtacha balandliklarda	2000 metrdan balandda	Jami

Yevropa	69	24	7	0	0	100
Osiyo	56	24	12	7	1	100
Afrika	32	24	21	21	21	100
Shim. Amerika	47	33	8	8	4	100
Jan. Amerika	42	15	23	9	11	100
Avstraliya va Okeaniya	73	18	8	1	0	100
Jami quruqlikda	56	24	12	7	1	100

Manba: Qayumov A. Yakubov O'. Abdullayev A. "Aholi geografiyasi va demografiya asoslari" T.: 2011, 46 b

Dunyo aholisi vertikal mintaqalar bo'yicha ham notekis taqsimlangan. Aholining yarmidan ortiq qismi (56 %) mutlaq balandligi 250 m. gacha tekisliklarda istiqomat qilishadi. Salkam chorak qismi (24% i) 200-500 m. balandlikka ega bo'lgan hududlarda joylashgan. Umuman olganda yer shari aholisining qariyb 80 % i dengiz sathidan 500 m. gacha bo'lgan hududlarda joylashgan. Ayni vaqtda 2000 m. dan balandda joylashgan aholi yer shari aholisini 10 % ini tashkil etadi. Umuman olganda, aholi soni va ulushi balandlik oshgan sari kamayib boradi. Lekin, bu qonuniyat Janubiy Amerikada o'z ifodasini topmaydi. Bundan tashqari, Osiyo qit'asi bilan jami quruqlik yuzasiga hos bo'lgan ko'rsatkichlar bir hil miqdorlar hosligi bilan ajralib turishini ta'kidlab o'tish lozim.

Okean va dengiz sohillari, dunyo vodiylaridagi pasttekisliklarda joylashgan aholi salmog'i dunyo aholisining tarkibida muntazam ortib bormoqda. Sohillarda aholining konsentratsiyalashuvi jarayoni hamon davom etmoqda. Bu hol suv resurslarining inson hayoti uchun naqadar muhimligi bilan bog'liqdir.

I.3 Jahon aholisining qit'alar bo'yicha joylashuviga hos hususiyatlar

Dunyo aholisining 1000 yildan XXI asr boshlariga qadar o'sishi tahlil qilinsa, dunyo aholisining bir milliardga yetishi uchun salkam 850 yil kerak bo'lgan bo'lsa, 2 milliardga yetishi uchun 85 yil, 3 milliardga yetishi uchun 25 yil, 4 milliardga yetishi uchun 15 yil, 5 milliardga yetishi uchun 20 yil, 6 milliardga yetishi uchun 15 yil va 7 milliardga yetishi uchun 12 yil kerak bo'lgan. Yer shari aholisining ko'payib borishi alohida hududlar bo'yicha ham farq qiladi.

Yevropada XIV asrning o'rtalaridan fan va texnika rivojlandi. Ilmiy manbalarda, ushbu davrni Yevropa uchun "uyg'onish" davri deb qayd etilgan.

Yevropa dunyo qit'alari ichida aholining o'rtacha zichligi yuqori hudud hisoblanadi. Aholi zichligi Yevropaning Shaharlarida yuqori bo'lib, qishloq hududlaridan keskin farq qiladi. Bu qit'ada aholi umuman yashamaydigan hudud yo'q. Yevropada aholisi nisbatan siyroak joylashgan hududlar Islandiya va Norvegiyadavlatlari bo'lsa, aholisi eng zich joylashgan

mamlakatlar Niderlandiya va Belgiya davlatlaridir. Aholi zichligi bo'yicha Malta davlati alohida ahamiyatga ega bo'lib bu yerda aholi 1 km² ga 1000 kishidn ortadi. Maltada toza ichimlik suvi juda tanqis hisoblanib, u bozorda sotiladigan tovar hisoblanadi. Toza suvning narhi xatto vinodan ham qimmat turadi. Yevropada aholi zich joylashgan hudud Reyn daryosi vodiysidir. Bu yer juda hosildor lyossimon tuproqlardan tarkib topgan bo'lib, dexqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanish uchun juda qulaydir. Shuningdek, Dunay daryosi vodiysi bo'ylab ham aholi zichligi nisbatan yuqoridir.

Yevropada urbanizatsiya darajasining yuqoriligi Shahar va qishloq hududlarida ham aholi zichligi o'zaro farq qiladi. Masalan, Maltada qishloq aholisi 1 km² ga 100 kishidan ortiq bo'lsa, Yevropaning shimoliy qismlarida aholi siyrak joylashgan. Chunki, bu yerlar iqlimi juda sovuq bo'lib, qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun qulay emas. Shunday bo'lsada, Yevropada aholi zichligi 1970-2010 1 km² maydonga 94 kishidan 124 kishiga ortgan.



Manba: Qayumov A. Yakubov O'. Abdullayev A. "Aholi geografiyasi va demografiya asoslari" T.: 2011

Fan-texnikaning rivojlanishi tufayli Yevropada ishlab chiqarishda qo'l kuchi o'rniga texnikalardan foydalanish aholi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini ma'lum darajada yaxshilanishiga olib keldi. Aholi soni oldingi davrlardagiga nisbatan tezroq ko'paya bordi. Lekin, Yevropaning ba'zi hududlarida tarqalgan epidemiyalar (1624,1639 yillarda o'lat va vabo), ocharchiliklar (Italiyada 1739-1741 yillardagi kartoshka ocharchiligi) va urushlar (Turkiya va Bolqon urushi

XVI asrda; 1618-1648 yillardagi 30 yillik urush, 12 yil davom etgan ispan merosi uchun kurashlar 1701-1713 yillar) aholi sonining ko'payib borishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan albatta. Shuningdek, Yevropa aholi soni dinamikasiga emigratsiya ham ta'sir ko'rsatdi. Amerikaning kashf etilishi juda ko'p ispanlar, portugallar, inglizlar, fransuzlar va gollandlarning Amerikaga ko'chib ketishiga sabab bo'lgan. XVI-XVIII asrlarda Yevropadan Amerikaga 2 milliondan ortiq aholi ko'chib ketgan.

Shunday bo'lsa-da, Yevropa aholisi XVI-XVIII asrlarda oldingi davrlardagiga nisbatan yuqori sur'atlar bilan ko'payib brogan. Masalan 1700 yili Yevropa aholisi taxminan 100 mln. kishi bo'lsa, 1800 yilda bu ko'rsatkich 160 mln. ga yetdi. Fransiya, Angliya, Ispaniya, Germaniya Yevropaning aholisi eng ko'p mamlakatlar bo'lgan. XIX sarda Yevropa aholi takror barpo bo'lishida yangi bosqichga o'tdi. O'limning kamayib borishi, aholi o'rtacha umr ko'rishi davrining uzayishi va tug'ilishning nisbatan yuqori darajada saqlanib turishi aholining ko'payishini yuqori darajaga olib chiqdi. Ushbu davrda Yevropada tug'ilishning umumiy koeffisienti 35-40 promille, o'lim esa 20-25 promille atrofida bo'lgan. Aholining tabiiy o'sishi har ming kishi hisobiga 15-20 kishini tashkil qilgan. Yevropadan Amerikaga aholi emigratsiyasining ko'payishi, Fransiya imperatori Napoleonning urushlari aholi sonining ko'payishiga salbiy ta'sir etgan.

Lekin aholining tabiiy ko'payishining yuqoriligi tufayli Yevropa aholisining umumiy soni dinamikasida kamayish kuzatilmaydi. XIX asrda Yevropadagi eng ko'p sonly aholiga ega bo'lgan davlatlar Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya aholisi 1,5-2 barobarga ko'paygan.

XX asr Yevropa aholisining takror barpo bo'lishida yangi bosqich bo'ldi. Yevropadagi qator mamlakatlarda XX asrning ikkinchi yarmida tug'ilish keskin kamaydi. Tug'ilish bilan bir qatorda o'lim hollari ham qisqarib bordi. Aholining takror barpo bo'lishida yangi demografik o'tish davri boshlandi. Natijada, Yevropada aholi sonining o'sish sur'ati birmuncha kamaydi. 1900-1950 yillarda Yevropa aholisi har yili o'rtacha 1,8 mln. atrofida ko'paygan bo'lsa, 1970-2010 yillarda yiliga 1,2 mln. ni tashkil etgan va xozirgi kunda Yevropada dunyo aholisining 11,4%i joylashgan.

Osiyo dunyoning eng ko'p aholi istiqomat qiladigan mintaqasi hisoblanadi. XX asrga qadar bo'lgan davr uchun osiyo aholisi soni haqida aniq ma'luotlar deyarli yoq edi. Tahminlarga ko'ra, XVI-XVIII asrlarda Osiyo aholisining umumiy o'sish sur'ati Osiyoda ushbu davrlar nisbatan tinch, yirik qirg'in-barot urushlar bo'lmagan davr hisoblanadi. Osiyoning ba'zi davlatlari demografik jarayonlarida keskin o'zgarishlar kuzatiladi. Masalan, Yaponiyada oilalarda farzand tug'ilishlarini nazoratga olish boshlandi. Natijada aholining umumiy tabiiy o'sish sur'ati sekinlashdi va aholi soni ham nisbatan mos sur'atda kam sur'atda ko'paydi. XIX

asr boshlarida Osiyoning eng ko'p sonli hududi Hitoyda aholi soni 300-350 mln. Hindistonda – 150-210 mln. Yaponiyada 27-30 mln. kishini tashkil etgan.

XIX asrda Osiyo davlatlarining ko'pchiligida yangi siyosiy o'zgarishlar yuz berdi va ularning ko'pchiligi mustamlakalarga aylantirildi. Mustamlakachilik aholi ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga salbiy ta'sir etdi. Dehqonlarning asosiy qismi yersiz qoldilar, hunarmandchilik va ishlab chiqarish ma'lum darajada sustlashgan. Bu holatlar aholining tabiiy ko'payish sur'atiga salbiy ta'sir etgan. Ocharchilik, epidemiya va mustamlakachilarga qarshi urushlar natijasida aholi o'rtasida o'lim holatlari ko'plab kuzatila boshlagan. XIX asrning oxirida Hindistonda 20 martaga yaqin ocharchilik bo'lib, ularda qariyb 20 mln. aholi o'lgan. Ana shu davrda (1887 y.) Xitoyning Shimoliy rayonlarida ham ocharchilik bo'lib, 4-6 million kishi halok bo'lgan. XIX asrda osiyoning bir qator davlatlarida aholining tug'ilish koeffisienti 45-50 promilleni, o'lim esa 40-45 promilleni tashkil etgan. Natijada, Osiyo aholisining soni juda sekinlik bilan ko'paygan. 1990 yillarda Osiyo aholisining soni 0,9-1,0 mlrd. kishidan ortgan. Shu jumladan, Xitoyda aholi soni 400-500 mln., Hindistonda 285ml., Yaponiyada 44 mln. ga yetgan.

XX asrda Osiyo mamlakatlarining ko'pchiligida aholi o'limining keskin kamayishi kuzatiladi. Natijada, Osiyo aholisining soni ko'payib boradi. 1900-2000 yillarda Osiyo aholisi soni 950 milliondan 3,6 mlrd. ga yetdi yoki 3,6 marta ko'paydi. Shuni alohida qayd etish lozimki, XX asrning ikkinchi yarmida Xitoy, Hindiston kabi aholisi ko'p sonly mamlakatlarda tug'ilishni nazorat etish davlat siyosati darajasida olib borilishiaholi o'sish sur'atining birmuncha sekinlashuviga olib keldi. Osiyo aholisining dunyo aholisidagi salmog'i 1000-2000 yillarda 63,9 foizdan 59,3 foizga tushdi. Hozirda (2005 y) Osiyoda dunyo aholisining 60,6 foizi istiqomat qilmoqda.

Osiyoda dunyo aholisining asosiy qismi yashaydi. Sharqiy Osiyoda Yaponiya, Xitoy, Koreya, janubiy Osiyoda esa Hindiston, Pokiston va Bangladesh kabi davlatlar joylashgan bo'lib ular dunyoda aholi zichligi bo'yicha yuqori o'rinlarni egallaydi. Osiyo aholisining asosiy qismi Hindixitoy yarim oroli va Indoneziya orollarida joylashgan bo'lib ularda aholi zichligi 1 km² ga 400-500 kishiga teng. G'arbiy Osiyodagi Arabiston yarim orolida, Markaziy Osiyoda, ayniqsa Mongoliyada aholi siyrak joylashgan bo'lib, 1 km² ga 2-3 kishini tashkil etadi. Osiyoda dunyo qishloq aholisining katta qismi joylashgan bo'lib, ular qishloq xo'jaligi, ayniqsa dexhqonchilik uchun qulay yerlarga Xitoydagi yirik daryolar, Gang, Braxmaputra, Mekong, Xuanxe vodiylariga, Koreyaning janubiy qismi, Yaponiya va Yava orollariga joylashganlar. Bu hududlar maydoni 2,5 mln. km² bo'lib, ularda taxminan 2 milliarddan ortiq aholi yashaydi. Aholi zichligi Hind va Ganga vodiylarida, Xuanxe va Yanszi deltalarida juda zich bo'lib 1 km² ga 1000-1500 kishini tashkil etadi.

Osiyoda aholi doimiy yashamaydigan tog'li hududlar (Tibet, Hindiqush, Himolay tog'liklari) va cho'llar (Rub-al-hali, Takla-makon, Gobi) ham mavjuddir. Afg'oniston, Eron, Suriya, Turkiya davlatlari hududlarida ham aholi juda siyrak joylashgan. Chunki, bu hududlar tabiiy sharoiti ham dexqonchiik uchun qulay emas. Bu yerlarda aholi asosan ko'chmanchi chorvachilik bilan chug'ullanadilar.

Afrika - inson ajdodlarining eng kadimiy maskanlari shakllangan, shu bilan bir qatorda aholisi yer kurrasining qator hududlariga nisbatan juda siyrak joylashgan hudud. 1970-2004 yillarda Afrika aholisining o'rtacha zichligi 1 km^2 ga 12 kishidan 29 kishiga yetgan. Afrikada aholining siyrak joylashuvi bir tomondan tabiiy sharoitning qishloq xo'jaligi uchun qulay emasligi, ichimlik va sug'orish uchun suv tanqisligi bo'lsa, ikkinchi tomondan Afrika davlatlariining juda uzoq davr Yevropa davlatlari mustamlakasi bo'lib kelganligidir, chunki koloniya sharoitida aholining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi darajasi sekinlashgan. Ushbu jarayon esa aholining tabiiy o'sishiga, o'rtacha umr ko'rish darajasiga salbiy ta'sir etgan. Natijada, aholi soni sekin ko'payadi va aholi zichligi xam shunga mos tarzda o'zgargan. Aholining eng yuqori zichligi Mavrikiy, Reyunon va Viktoriya ko'li atrofida joylashgan Ruanda va Burundi davlatlarida (1 km^2 ga 400-450 kishi), aholi eng siyrak joylashuvi esa Botsvana, Liviya va Namibiya davlatlarida (1 km^2 ga 2-3 kishi) kuzatiladi.

Afrikada ham aholi joylashuvida suv resurslarining asosiy omil ekanligi yaqqol kuzatildi. Nil daryosi vodiylarida, Gvineya qo'ltig'i, Tunis, Jazoir va Marokashning sohil bo'ylarida aholi zich joylashgan Sahroi Kabir, Kalaxari va Liviya cho'llarida, tropik o'rmonlarda aholi juda siyrak, ba'zi cho'llarda umuman aholi yashamaydi. Afrikaning ba'zi hududlarida aholi juda notekis joylashgan. Bunday xol, ayniqsa, Afrikaning Shimoliy qismiga xarakterlidir. Bu yerda aholi eng zich joylashgan – O'rta yer dengizi sohillari bilan aholisi juda siyrak Sahroi Kabir cho'li mavjuddir. Shuningdek, Marokashning shimoli-garbida uning aholisining 90 foizi istiqomat qiladi va aholi zichligi 1 km^2 ga 200 kishidan ortiq, janubi-sharqiy qismidagi tog' va cho'l hududlarida aholi zichligi 1 km^2 ga 1 kishini tashkil etadi.

Afrika aholisi sonining ko'payib borishida uning tabiiy sharoiti bilan bir katorda ijtimoiy ahvoli xam asosiy omil xisoblanadi. O'rta asrlarda Shimoliy Afrikaga arablarning bosqinchilik yurishlari tufayli juda ko'p aholi qirilib ketgan. Bu qit'a aholisi asosan G'arbiy Sudan va Sharqiy Afrika aholisi xisobiga birmuncha ko'paygan. Sharqiy Afrikada arab sultonliklari tashkil topib, Osiyo davlatlari, ayniqsa, Hindiston bilan savdo-sotik rivojlangan.

Ikkinchi ming yillikda Afrika xalkining ijtimoiy-siyosiy hayotida yana keskin o'zgarishlar sodir bo'lgan. Afrikani Yevropaliklar tomonidan mustamlakaga aylantirilishi natijasidagi urushlar, afrikaliklarni qullarga aylantirib sotilishi, ularning og'ir turmush sharoiti, ochlik, issik iqlim sharoitida turli yuqumli kasalliklarning tez-tez tarqalib turishi natijasida aholi

o'rtasida o'lim ko'rsatkichlari yuqori darajada bo'lgan. 1650-1800 yillarda Afrika aholisi taxminan 100 milliondan 90 millionga kamaygan.

XVI-XVII asrlarda Afrikadan negrlarni qul qilib, Amerikaga olib ketilishi ham Afrika qit'asi aholisi soniga salbiy ta'sir etgan. Ayniqsa, Shimoliy Amerikadagi ingliz koloniyalariga Afrikadan millionlab negrlarni qul qilib haydab kelishgan. 1680-1786 yilning o'zida Shimoliy Amerikaga Afrikadan 2 million negrlar keltirilgan. Yuzlab negrlar yo'lda halok bo'lishgan va qul sifatida sotib yuborilgan. Yuqorida qayd etilgan xolat natijasida Afrikaning Angola, Mozambik va G'arbiy Sudan kabi davlatlarida aholi juda kamayib ketgan.

XIX asrga kelib, Afrikaning ijtimoiy-siyosiy ahvoli birmuncha yaxshilandi. Qator davlatlar mustamlaka tuzumidan ozod bo'ldilar. Dunyoda inson huquqlarini, millatlar manfaatini himoya etish tashkilotlari tashkil topib, faoliyat ko'rsata boshladi. Afrika xalklarining himoya qilinishi, ularga tibbiy yordam ko'rsatish, bilim olishlariga imkoniyatlar yaratila boshlandi. Natijada qit'a aholisi o'rtasida ulim hollari kamaydi. Tug'ilishning yuqori darajada bo'lishi va o'limning kamayishi Afrika aholisining tez sur'atlar bilan ko'payishiga olib keldi. 1900 yil Afrika aholisi taxminan 130 mln. kishini tashkil etgan. 1900-2000 yillarda esa qit'ada aholi soni 6 marta ko'paydi va 790 millionga etdi. XX asr Afrika aholisining eng yuqori sur'at bilan ko'paygan davridir. 2005 yil ma'lumotlariga qaraganda, Afrika aholisining soni 885 millionni tashkil etib, bu kursatkich dunyo aholisining 13,8 foizini tashkil etdi.

Ilmiy manbalarda yozilishicha, Amerika Xristofor Kolumb tomonidan kashf etilgan davrga qadar, 25 milliondan ortiq aholisi bo'lgan. Aholisining asosiy qismini atseklar (Markaziy Meksika) davlatida va inkalar imperiyasida (Peru) yashaganlar. Amerika aholisining tub xalki xindular bo'lib, ular kichik-kichik qabilalarga birlashganlar. Hozirgi AQSH hududida 1 millionga yaqin xindular yashagan.

Amerikaning Yevropaliklar tomonidan bosib olinishi uchun bo'lgan urushlar natijasida tub aholi bo'lmish xindularning qirib yuborilishiga sabab bo'lgan. Masalan, Karib dengizi xavzasidagi orollarda 1 milliondan ortiq xindular yashagan. XVI asr o'rtalarida Yevropaliklarning bosqinchilik urushlari tufayli mahalliy aholi vakillaridan bir necha yuz kishigina kolgan xolos. Meksikada esa XIX asr boshlarida 1,5 mln. AQSH da XIX asr oxirlarida 200 ming xindular yashaganliklari xaqida ma'lumotlar mavjud. Amerika tub aholisining kamayib ketishiga ularning Yevropaliklar tomonidan ayovsiz qirib tashlanishi bilan birga, Yevropaliklar olib kelgan epidemiyalar «yangi kasalliklar» (kizamiq, vabo, toshmalar), plantatsiyalardagi og'ir, antisanitariya sharoitdagi mexnatlar xam sabab bo'lgan.

Amerika ham er sharidagi aholisi nisbatan siyrak joylashgan xududdir. Bu yerda aholi zichligi 1970-2004 yillarda 1 km² ga 12 kishidan 22 kishiga yetgan. Amerikaning aholi zichligi bo'yicha dunyodagi tutgan urni Afrikaga yaqindir. Shimoliy Amerikada aholi Janubiy

Amerikaga nisbatan siyrakroq joylashgan. AQSHning Atlantika okeani soxillaridagi Rod-Aylend, Nyu-Jersi, Pensilvaniya shtatlarida aholi zich joylashgan. G'arbga borgan sari aholi zichligi kamaya boradi. Missisipi vodiysidan so'ng tog'li xududlar boshlanadi va bu yerlarda aholi juda siyrak bo'lib, 1 km² ga aholi zichligi 1 kishidan to'g'ri keladi. Tinch okeani sohillarida, ayniqsa, Kaliforniyada aholi zichligi yana ortib boradi. Kanadada xam aholi nisbatan siyrak joylashgan bo'lib, aholi 1 km² ga 3 kishidan to'g'ri keladi. Kanadaning juda katta maydonini tayga va tundra zonalari egallagan. Kanadaning shimoliy qismi, arktika orollarda, AQSH ga tegishli Alyaska yarim orolida aholi juda xam siyrak joylashgan va ba'zi xududlarda aholi umuman yashamaydi.

Janubiy Amerikada xam aholi asosan suv resurslariga yaqin, okean sohillarida joylashgan. Braziliyaning San-Paulo shtatida va sharqiy qismida, Parana pasttekisligida aholi nisbatan zichroq joylashgan bo'lib 1 km² ga 50-55 kishini tashkil etadi. Karib dengizi orollari va Bermud orollarida ham aholi zich joylashgan. Aholi zichligi yuqorida kayd etilgan orollarda 1 km²ga 300-400 kishidan ortiq. Amazonka vodiysining tropik o'rmonlar va botqoqliklar bilan qoplangan qismi, baland And tog'lari va Atakama cho'lida esa aholi deyarli yashamaydi.

Amerika aholisi soni XIX asr boshiga qadar, asosan Yevropadan immigrantlar kelishi va Afrikadan ko'plab negr-qullarni olib kinishi xisobiga sekinlik bilan ko'paygan. Ushbu davrda Amerika kit'asida 25 million atrofida aholi bo'lib, ularning 18 millioni Lotin Amerikasida, 5,3 millioni AQSHda yashaganlar.

XIX asrda Yevropadan Amerikaga ko'chib keluvchilar soni yana xam ko'paydi. Immigrantlarning asosiy qismi iqtisodiy axvol yaxshiroq bo'lgan AQSH ga qaratilgan edi. XIX asrning ikkinchi yarmida (1821-1900 yillarda) AQSHga kelgan immigrantlar soni 20 million atrofida bo'lgan. AQSH aholisi immigrantlar xisobiga juda tez sur'at bilan ko'payib borgan va 1900 yilda 76 millionga yetgan va ularning tarkibida 10 million atrofida negrlar bo'lganligi qayd etilgan.

Kanada xududlariga xam XIX asrda immigratsiya jarayoni kuchaydi. XIX asr boshlarida Kanadada atigi 300 ming atrofida aholi istiqomat qilgan bo'lsa, 1851 yili aholi soni 1,8 1900 yilda esa 5,8 millionga etdi. Asr boshida faqat Kanadaga dastlab Yevropadan kelgan fransuz emigrantlar aholining asosiy kismini tashkil etgan edi. XIX asrning ikkinchi yarmida AQSH xududi tamoman egallab olingach, immigrantlar oqimi Kanadaga qaratiladi. Lotin Amerikasi davlatlari aholisi esa XIX asrlarda AQSH va Kanada aholisiga nisbatan sekinroq ko'paygan. Asosan aholining ko'payishi tabiiy o'sish xisobiga sodir bo'lgan.

Bu davrda Yevropadan immigrantlarning kelishi Shimoliy Amerikaga nisbatan kamroq bo'lgan. Immigrantlar asosan Argentina, Braziliya va Urugvay davlatlariga kelganlar. 1900 yilda Lotin Amerikasida 60-65 million aholi istiqomat qilgan. 1850-1900 yillarda butun Amerika

qit'asi aholisi 65 million kishidan 145 million kishiga ko'paygan yoki 2,2 marta oshgan. 1900-2000 yillarda esa aholi soni 6 martaga ko'paydi. Bu davr Amerika aholisining eng yuqori sur'at bilan ko'paygan davridir. Aholi sonining ortib borishi dunyo aholisi tarkibida uning xissasini 3 barobar kutarilishiga sabab buldi. 2005 yil Amerikada dunyo aholisining 13,7 foizi yashamoqda. 1000 yilda bu kursatkich 4,6 fozini tashkil etgan edi.

Okeaniya va Avstraliya aholi zichligi buyicha dunyoda eng oxirgi o'rinda turadi. 1970-2004 yillarda aholi zichligi 1 km² ga 2,5 kishidan 3,8 kishiga etgan. Lekin materikning ichida aholi juda notekis joylashgan. Okeaniya orollarida aholi zichligi nisbatan yuqori. Guam orollarida aholi zichligi 1 km. ga 200 kishidan ortiq bo'lsa, G'arbiy Samoada - 50 kishidan ortiqni tashkil etadi. Avstraliyada esa aholi uning Sharqiy, Janubiy- Sharqiy va Janubiy-G'arbiy qismida, Yangi Janubiy Uels, Viktoriya va Kvinslend shtatlarida zich joylashgan. Bu xududlarda Avstraliyaning 80 foizdan ko'p aholisi istiqomat qiladi. Markaziy va Shimoliy Avstraliyada joylashgan cho'l xududlarida maxalliy tub aholi-avstraliyalik aborigenlar yashaydilar. Ular juda kam bo'lib, zichlik xam nisbatan pastdir. SHuningdek, Yangi Gvineyaning janubiy qismida xam aholi siyrak joylashgan. CHunki bu xududlar maydonida xam tabiiy sharoit inson yashashi uchun noqulay bo'lib, tropik o'rmonlar va botkokdiyutardan iboratdir.

Aholinnng yer yuzi buylab joylashuvi qator omillar bilan bog'liq. Ularga tabiiy sharoit, aholi manzilgoxlari shakllanishining tarixiy xususiyatlari, demografik o'tishning xozirgi bosqichi, rivojlanish darajasi va xo'jalik tarkibi kabi sotsial-iqtisodiy omillarni kiritish mumkin. Aholining joylashuvida eng asosiy omil bu tabiiy sharoitdir. Dunyo aholisining asosiy qismi inson yashashi uchun qulay tabiiy sharoitga ega bo'lgan mu'tadil, subtropik va tropik iqlim zonalarining qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanish imkoniyati bor xududlarida joylashganlar. Avstraliya va Okeaniya hududi aholisiga oid ma'lumotlar demografik manbalarda, XVIII asrning ikkinchi yarmiga taalluqlidir. 1788 yilda ushbu qit'ada 200-300 ming maxalliy xalqlar (aborigenlar) yashaganlar. Okeaiiyada esa XVIII asr o'rtalarida 3 million kishi bo'lganligi taxmin etiladi. Bu xududda xam aholi shakllanishida Amerika qit'asiga o'xshash yevropaliklarning kelishi bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar katta ta'sir etgan. Yevropaliklar bilan to'qnashuv- lardan, epidemiyalardan Avstraliya aholisining juda ko'p qismi qirilib ketgan. XIX asrning oxirlarida Avstraliyada 100 ming nafar aborigenlar qolgan xolos. Shuningdek, Yangi Zelandiyaliklar xam XVIII asrning oxiridan XIX asrning oxirgi choragiga qadar 200-250 mingdan 37,5 ming kishiga kamayib ketgan. XVIII asrning oxiridan XIX asrning oxiriga qadar, Gavayiliklar soni 300 mingdan 31 mingga qiskargan.

XIX asrning oxiridan boshlab, Avstraliya va Okeaniya aholisi aralash millatlar va yevropaliyutar xisobiga birmuncha ko'paya boshladi. Ayniqsa, Avstraliya va Yangi Zelandiya aholisi asosan yevropaliklar xisobiga ko'payib borishining asosiy sababi Avstraliya va

Okeaniyada yangi konlarning topilishi va uzlashtirilishi edi. Yevropada ishlari yurishmagan kambagal va o'rtaxol kishilar tezda boyib ketish maqsadida bu yerga ko'plab ko'chib kelishgan. 1800-1850 yillarda Avstraliyaga kelgan immigrantlar soni 5 mingdan 405 mingga yetgan. Immigratsiya xisobiga Gavayi, Fidji, Yangi Kaledoniya aholisi xam ko'paya boshladi. Natijada, Avstraliya va Okeaniya aholisining dunyo aholisi tarkibidagi salmog'i deyarli 2 barobar ko'paydi. 1900 yilda bu xudud aholisi 6 million kishini tashkil etgan bo'lsa, 2000 yilda bu kursatkich 30 millionga etgan. Xozirgi kunda Avstraliya va Okeaniya aholisining soni 33 millionni tashkil etmoqda.

IKKINCHI BOB. URBANIZATSIYA VA AHOLI JOYLASHUVI

II.1 Shahar aholi punktlarining rivojlanish xususiyatlari

Shaharlar kishilik jamiyatining ilk davrlar bo'lgan antik davrlarda yuqori darajada shakllanib, jamiyat taraqqiyotida katta o'rin tutgan. Antik davr davlatchiligida Shaharlar markaziy o'rin tutib, aholi punkti sifatida emas davlatlar negizi sifatida maydonga chiqadi. Misr, Yunoniston, Rim va Old Osiyo mamalakatlari Shaharlarning rivojlanishi tufayli kuchli taraqqiy etgan davlatlarga aylangan. Shaharlar inqirozi esa, bu davlatlarning parchalanishiga va hatto yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'lgan. Shaharlar ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida vujudga kelgan aholi punktlari bo'lib, ularning bunyod qilinishida qishloqlarga nisbatan turli tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy hamda eng muhimi strategik qulaylik sharoitlari talab etiladi. Aytish mumkinki, ba'zi hollarda bu talablardan eng muhimi muayyan bitta omilga bo'ysinadi.

Shaharlarning shakllanishi va rivojlanishi insoniyat taraqqiyotida yangi yoʻnalishlarni ochib beradi. Barcha yangiliklar, oʻzgarishlar, tushuncha va munosabatlar Shaharlarda paydo boʻladi. Arxitektura, yozuv, siyosiy munosabatlar, ilm-fan taraqqiyoti Shaharlar tushunchasi bilan bogʻliqdir. Qadimiy Shaharlardagi binolar, shakllar turli tarixiy davrlar qiyofasi haqida maʼlumot beradi va bugungi kunda Shaharlarning rivojlanishi mamlakatlarning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotidagi asosiy koʻrsatkichlaridan biridir. Turli tarixiy davrlarda Shaharlarning ahamiyati u yoki bu darajada oʻzgarib turgan boʻlsada, ular yirik aholi punktlari, asosiy ishlab chiqarish va savdo tugunlari, strategik ahamiyatga ega boʻlgan nuqtalar, poytaxtlar kabi vazifalarni bajarib kelgan. Shaharlarning tarixiy ahamiyati shundaki, turli davrlarda xalqlarning milliy shakllanishi madaniy va ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi haqida maʼlumot beradi. Binobarin Shaharlarning vujudga kelishi va shakllanishida xalqlarning rivojlanish yoʻnalishlari namoyon boʻladi. Shaharlar, aholi punkti va ijtimoiy hodisa sifatida turli tarixiy davrlarda jamiyat taraqqiyotida alohida oʻrinlarga ega boʻlgan.

Xususan:

- **Shaharlar davlat negizi sifatida (Bobil, Afina, Rim va h.k.)**
- **Shaharlar ijtimoiy siyosiy gʻoyalar markazi (Quddus, Makka)**
- **Shaharlarning madaniy va ijtimoiy rivojlanish markazlari sifatidagi oʻrni (Samarqand, Buxoro, Istambul, Parij, Sankt - PetYerburg va b.)**
- **Shaharlar milliy tiklanish, davlatchilik markazi (Kiev, Moskva, Novgorod, Dehli)**

Shunday oʻrin xususiyatiga ega boʻlish orqali Shaharlar jamiyat taraqqiyotining yangi yoʻnalishlarini binobarin insoniyat tarixining oʻzgarishlar bosqichini yuzaga keltirgan deyish xato boʻlmaydi. Chunki insoniyat tarixining oʻzgarishlari muayyan hududda, xususan Shaharlarda roʻy beradi. Hozirgi zamonda Shaharlar mamlakat iqtisodiy ijtimoiy rivojlanishining asosiy hududlaridir. Shaharlarning iqtisodiy geografik oʻrni va xususiyatlari rivojlanishga taʼsir etuvchi omillardan biri ekanligi taʼkidlanadi. Qadimgi Shaharlarning vujudga kelishida asosan ikkita omil muhim oʻrin tutgan.

1.Savdo-sotiqning rivojlanishi;

2.Strategik maqsadlar.

Shaharlar asosiy xalqaro savdo yoʻllariga xizmat qilish nuqtalarida vujudga keladi. Bunday Shaharlarning vujudga kelishi uchun asosiy omil savdo-sotiq uchun qulay sharoitdir. Shaharlarning savdo sotiq omili taʼsirida vujudga kelishi qadimda Osiyo qitʼasi uchun xarakterli boʻlgan. Chunki eng yirik savdo yoʻllari Osiyo qitʼasida edi. Shaharlarning strategik

maqsadlarda vujudga kelishi eng avvalo Shahar va Shahar aholisini dushmandan himoya qilishga asoslanadi. Bunda Shaharlar bostirib kelayotgan dushmanni to'xtatib qoluvchi yagona to'siq bo'ladi. Shaharlarni barpo etishda bunday maqsadning bosh omil bo'lishi jamiyatdagi iqtisodiy ijtimoiy va siyosiy munosabatlarning o'ziga xos shakllanishi natijasidir. O'rta asrlar Yevropasida siyosiy va ijtimoiy beqarorliklar hukm surishi o'sha davr Yevropa Shaharlarining vujudga kelishida ushbu omilning bosh maqsad sifatida qabul qilinishiga sabab bo'ldi. Zamonaviy Shaharlarning vujudga kelishidagi asosiy omil iqtisodiy geografik rayonlashtirish bilan bog'liq. Resurslardan foydalanish va mehnat resurslarini joylashtirish, mamlakatda iqtisodiy rayonlarni shakllantirish masalalari Shahar bunyod qilish va Shaharsozlik bilan chambarchas bog'liqdir.

Dunyo mamlakatlarida aholi punktlarining Shahar maqomini olishlari uchun mezonlarning turlicha darajasi qabul qilingan, lekin asosiy ko'rsatkich aholi miqdori bo'lib qolgan. Shahar maqomini berishda aholi sonidan tashqari, aholining ishlab chiqarishdagi bandligi, xususan sanoat va noishlab chiqarish sohalaridagi ulushi ham asosiy mezonlardir. Turli mamlakatlarda bu mezonlar darajasining har xilligi mamlakatlardagi yashash sifati va darajasi, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish xususiyatlari hisobga olinadi. Masalan: Rossiya Federatsiyasida aholi soni 12 mingdan oshgan va aholining 80% sanoat va xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan aholi punktlari Shahar maqomini oladi. O'zbekistonda muvofiq ravishda aholi soni 7 mingdan oshishi talab qilinadi. Bunday ko'rsatkichlar Yevropa mamlakatlarida ham har xil bo'lib, mamlakatdagi ishlab chiqarish sohalarini xususiyatlari va aholi punktlari haqidagi tushunchalariga bog'liq.

Shahar turmush tarzining paydo bo'lishi yoki shakllanishi ijtimoiy mehnat taqsimotida yangi turdagi mahsulotlarning paydo bo'lishi va ularga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi bilan bog'liqdir. Bunday mahsulotlar eng avvalo bevosita tirikchilik uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar, kiyim-kechak va oziq-ovqat ko'rinishida bo'lgan bo'lsa, keyingi davrlarda harbiy ehtiyojlar uchun qurol-yarog'lar, kundalik hayotda alohida o'ringa ega bo'lgan zebu-ziynat va boshqa turdagi mahsulotlar ma'naviy madaniy ehtiyojlarni qondiruvchi mahsulotlarni yaratish jarayonida kishilik jamiyatining taraqqiyoti aks etadi. Shahar turmush tarziga xos bo'lgan xususiyatlar namoyon bo'ladi. Dastlabki Shaharlar Frot va Dajla oralig'ida, Misrda, Hindistonda, O'rta Yer dengizi bo'yida, Xitoyda paydo bo'lgan va jamiyat taraqqiyotining keyingi rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Shahar turmush tarzining zamonaviy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. **Miqdoriy.**
2. **Iqtisodiy**
3. **Arxitektura**

4. **Madaniy**
5. **Demografik**
6. **siyosiy – huquqiy**
7. **ijtimoiy – psixologik**
8. **kommunal - maishiy**

Miqdoriy xususiyat mamlakat aholisining salmoqli ulushining yirik Shaharlarda to‘planishi bilan bog‘liq. Ma’lumki aholining yuqori darajadagi zichligi yirik Shaharlarda kuzatiladi. Aholi gavjumligi, aholi punktlarining vertikal o‘sishi hodisalari XX asr Shaharlari uchun tabiiy holdir. Shaharlarda tabiiy o‘sinh qishloqlardan ko‘ra past bo‘lgani holda tug‘ilish miqdori yuqoridir.

Iqtisodiy xususiyatning mohiyati Shaharlarda ishlab chiqarish korxonalarining ko‘payib borishi va mamlakatda yaratiladigan milliy mahsulotning katta qismi Shaharlarga to‘g‘ri kelishidir. SHuningdek yirik shaharlarda ishlab chiqaruvchi va xaridorning yaqinligi ishlab chiqarishdagi rivojlanishni tezlashtiradi va iste’mol darajasini o‘stiradi. Shahar turmush tarzining iqtisodiy xususiyati kishilarning mulk va uning to‘planib borishida doimo yangiliklar bilan to‘ldirilib borishi bilan xarakterlanadi.

Arxitektura xususiyati alohida izoh talab qilmaydi. Chunki shahar va qishloqlarga xos qurilishlar hamma vaqt va har doim bir-biridan farq qilib kelgan. Lekin ba’zida shaharlarda qishloqlarga xos qurilishlar va shu bilan birga qishloqlarda shaharlarga xos binolar uchrab qoladi. Bu mamlakat aholisining yashash sifati bilan bog‘liq. Tarixiy nuqtai nazardan yondashilganda arxitektura xususiyati shahar aholi punktlarining kishilik jamiyati taraqqiyotida juda katta rolini ko‘rsatib beradi. Qadimgi binolarning shakli, bezaklari va qurilish usuli o‘sha davr kishilarining tushunchalari, bilim va dunyoqarashlari, orzu-umidlarini ifodalaydi. SHuningdek, aholini ruhiy tarbiyalashda asosiy o‘rin tutganligi ta’kidlanadi. Bir so‘z bilan aytganda binolar kitob bosish ixtiro qilingunga qadar kishilarning ongi va ruhini boshqarishda asosiy omil bo‘lgan. Bu xususda frantsuz yozuvchisi V. Gyugoning fikrlari diqqatga sazovordir. Ayni vaqtda shaharlar axitekturasi mamlakatdagi iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy rivojlanishni aks ettirmoqda.

Madaniy xususiyati Shahar kishisining o‘z madaniy va ma’rifiy ehtiyojlarini qondirishga ko‘proq imkon topa olishi bilan bog‘liq. Shaharlarda kishilarning madaniy dam olishi va tarbiyalanishi iqtisodiy rivojlanish omillaridan biridir. SHuning uchun ham yirik shaharlarda kishilarning ko‘ngil ochish va dam olishini ta’minlashdan katta daromad olinmoqda. Shahar turmush tarzining madaniy xususiyati madaniy rivojlanishga ehtiyojning doimiy o‘sib borishi bilan xarakterlanadi.

Demografik xususiyat asosan rivojlangan va urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarga xos bo'lib, tug'ilish va tabiiy ko'payish darajasining Shaharlarda tobora kamayib borishi, jinsiy yosh tarkibida qariyalarning, shuningdek ayollarning erkaklardan ortiqligi tendentsiyasi ortib borishi bilan xarakterlanadi. Bu xususiyat shahar turmush tarzining boshqa xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. XX asr yirik shaharlarida tabiiy ko'payish darajasining pasayishi bilan shaharlar aholisi miqdor jihatdan tobora ko'payib boraveradi va bu aholining mexanik ko'payishi bilan bog'liqdir.

Shahar turmush tarzining **siyosiy – huquqiy xususiyati** aholining ijtimoiy rivojlanishidagi eng muhim omillardan biridir. Shahar aholisi mamlakat va dunyodagi siyosiy yangiliklar va o'zgarishlarga nisbatan doimo munosabat bildiradi, ta'sir ko'rsatadi shu bilan birga bu hodisalarning yuz berishiga sabab bo'ladi. Fuqarolarning huquqiy tushunchalarining shakllanishi shahar aholisining hayotga bo'lgan munosabatlari bilan bog'liq.

Yuqorida ko'rib o'tilgan xususiyatlar asosiylardan bo'lsada Shahar turmush tarzini belgilovchi bosh omillar emas. Shahar turmush tarzining namoyon bo'lishida eng asosiy ko'rsatkich **ijtimoiy psixologik xususiyatlardir**. Shahar kishisining psixologiyasi tez moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Shahar kishisi haraktchan bo'lib bu tobora ko'payib borayotgan avtomobillar bilan bog'liq. Avtomobillarning ko'payishi esa o'z navbatida yirik shaharlar uchun muammolar yaratmoqdaki, bu muammolar rivojlangan davlatlarda Shahar turmush tarzining ajralmas qismi bo'lib bormoqda. Shahar kishisi o'z ma'naviy, ma'rifiy va ilmiy salohiyatini oshirib borish, shuningdek bo'sh vaqtini mazmundor o'tkazish uchun doimo imkoniyat topa oladi. Kommunal maishiy xizmatlar esa shahar turmushini engillashtirishga xizmat qiladi. Shahar turmush tarzining vujudga kelishida bir qancha omillar Yuqorida ko'rib o'tilgan xususiyatlarning yuzaga chiqishiga ta'sir ko'rsatadi. Bu omillarning asosiy qismi mamlakatdagi iqtisodiy ijtimoiy rivojlanish bilan bog'liq. Siyosiy o'zgarishlar ham bir qadar mamlakatdagi turmush tarzining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Inson omili Shahar turmush tarzining shakllanishidagi asosiy omildir. Tarixiy davrlar mobaynida mamlakat hududidagi ijtimoiy mehnat taqsimotini vujudga keltiruvchi mehnat va kasb-kor turlari ijtimoiy ongning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Yevropa qit'asidagi tarixiy rivojlanishda ichki siyosiy o'zgarishlarning ko'p marotaba ro'y berishi, tirikchilik manbai bo'lgan asosiy mahsulot turlarining faqat qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lmasligi, aholi punktlarining vujudga kelishida shahar tipining ma'qul ko'rilishiga olib keldi.

Shaharlar funktsiyasi deganda shaharning mamlakat yoki xalqaro miqyosda bajaradigan vazifasi, ishlab chiqarishdagi o'rni va h.k lar tushuniladi. Har bir Shahar o'z funktsiyasiga ega bo'lib, bunday funktsiyalar ma'muriy-hududiy, siyosiy-iqtisodiy, fan, rekreatsiya funktsiyalari

bo'lishi mumkin. Shaharning ma'muriy hududiy funktsiyasi muayyan ma'muriy birlikdagi o'rni bilan belgilanadi. M: viloyat markazlari.

Siyosiy boshqaruv funktsiyasi poytaxt shaharlarga tegishlidir. Iqtisodiy funktsiyasi shaharda turli sanoat tarmoqlarining mavjudligi transport yo'llarining o'tganligi, xalqaro portlarning mavjudligi, yirik vbank, savdo markazlarining mavjudligi kabilar bilan belgilanadi. Shaharning rekreatsion funktsiyasi tabiiy sharoitdan kelib chiqqan holda kishilar sog'ligi va dam olish uchun qulayligi, qadimiy madaniyat markazi ekanligi kabi shartlarni o'z ichiga oladi. Ilm-fan shaharlari maqomi shaharlarda yirik o'quv maskanlari, ilmiy tadqiqot markazlari mavjudligini hisobga olgan holda beriladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan yo'nalishlarning mavjudligi bo'yicha bir funktsiyali, ikki funktsiyali yoki ko'p funktsiyali Shaharlar ajratiladi. Bajaradigan funktsiyasi turli yo'nalishda bo'lishiga qaramay dunyodagi yirik shaharlarning aksariyati tarixiy ijtimoiy jihatdan eng muhim yo'nalishlari nomi bilan ataladi. M: Xalqaro moliyaviy markaz, kurort shaharlar, universitet Shaharlari, port Shaharlar va h.k.

Shaharlarning genetik xususiyatlari funktsional tiplari bilan bog'liq holda Shaharning vujudga kelish jarayonida ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rni bilan bog'liqdir. Bunday xususiyatlarni biz zamonaviy shaharlarning aniq ko'ra olamiz. M: konchilar shahri.

Yirik shaharlarning genetik xususiyatlarini tarixiy jihatdan qaysi yo'nalishlar bilan bog'liq ekanligiga qarab aniqlash mumkin. Bunda shaharning barpo etilishiga asosiy ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy iqtisodiy omillar, Shahar atrofi hududidagi tabiiy resurslar va shaharlarning turli tarixiy davrlarda qanday ahamiyatga ega bo'lganligiga qarab xulosa chiqarishimiz mumkin. Shahar genetik tipini aniqlashda Shahar toponimikasi ham katta ahamiyatga egadir. Shaharlarning funktsional genetik tiplariga ko'ra quyidagi umumiy atamalar mavjud: poytaxt shaharlar, sanoat shaharlari, port shaharlar, universitet shaharlar, kurort va boshqalar.

Shaharlar vujudga kelishi birinchi navbatda ijtimoiy mehnat taqsimoti bilan bog'liq bo'lgani holda, jamiyat hayotidagi o'zgarishlar, rivojlanishlar oqibatida yangi xususiyatlarni kasb eta boshlaydi.

Ayni vaqtda shaharlarning iqtisodiy geografik o'rnini belgilovchi mezonlar quyidagilarni tashkil etadi:

1. Shaharlarning aholi punkti sifatida hududdagi ahamiyati.
2. Shaharlarning iqtisodiy rayon ishlab chiqarishdagi korxona va mehnat resurslarining joylashuvidagi o'rni.
3. Shaharlarning mamlakat iqtisodiyoti, transporti, aholi joylashuvidagi ahamiyati.
4. Shaharlarning xalqaro iqtisodiy siyosiy munosabatlardagi o'rni.

Shaharlarni ularning hududiy mehnat taqsimotida ishtirokiga qarab klassifikatsiya qilish yo‘li bilan har bir shaharning mehnat taqsimotida tutgan o‘rnini, shahar sanoatining qanday xom-ashyoga asoslanishi yoki tayyor mahsulotni qaysi tomonlarga jo‘natishi aniqlanadi. Bu esa ana shu mavjud aloqalarning qanchalik iqtisodiy jihatdan to‘g‘riligiga va samaradorligiga baho berish imkoniyatini beradi.

Hududiy mehnat taqsimotida har bir shaharning tutgan o‘rnini aniqlashda uning iqtisodiy geografik o‘rnini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy geografiya fanida Shaharlarni ularning hududiy mehnat taqsimotida tutgan o‘rniga qarab quyidagi guruhlariga bo‘lish mumkin:

1. Faqat mahalliy aloqalarda ishtirok etuvchi shaharlar (quyi ma‘muriy rayonlarning iqtisodiy madaniy markazlari)
2. Iqtisodiy rayonlarning o‘z ichidagi mehnat taqsimotida ishtirok etuvchi shaharlar
3. Iqtisodiy rayonlararo mehnat taqsimotida ishtirok etuvchi Shaharlar
4. Xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etuvchi shaharlar.

Iqtisodiy geografiyada iqtisodiy geografik o‘rin tushunchasining muhimligini. Uning mamlakatlar, rayonlar va shaharlarning rivojlanilishidagi rolini N. N. Baranskiy asoslab bergan. N. N. Baranskiy ta‘rifi bo‘yicha, iqtisodiy geografik o‘rin – muayyan joy, rayon yoki shaharning o‘zidan tashqarida yotgan va uning rivojlanishi uchun ma‘lum iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan ob‘ektlarga nisbatan hududiy munosabatidir.

Iqtisodiy geografik o‘rin qulayligi shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Chunki shaharlar o‘z-o‘zidan vujudga kelmasligi, balki o‘z atrofidagi xo‘jalik hayoti bazasida, iqtisodiy aloqalar negizida paydo bo‘lishi va rivojlanishi bizga ma‘lum.

Zamonaviy shaharlarning iqtisodiy geografik o‘rnining qulayligini belgilovchi muhim omil ayni vaqtda, undagi ishlab chiqarishning yoqilg‘i, xom-ashyo resurslari bilan ta‘minlanganligidir. Shaharning iqtisodiy geografik o‘rni qanchalik qulay bo‘lsa, uning o‘sha resurslarni tashib keltirishi, tayyor mahsulotlarni o‘zlashtirishi, iqtisodiy aloqalari shunchalik qulay bo‘ladi, shuningdek uning rivojlanishi, yiriklashuvi uchun imkoniyatlar ham ko‘p bo‘ladi. Shaharlar o‘z geografik o‘rnining o‘zgarishiga ma‘lum ta‘sir ko‘rsatadi. Shahar o‘z atrofidagi hududlarda o‘zi uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish tarmoqlarini vujudga keltirish yo‘li bilan (sanoat, qishloq xo‘jalik tarmoqlarini) ularga iqtisodiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shaharlar, shuningdek, ma‘lum pozitsiyani egallaganlaridan (masalan poytaxt bo‘lganidan keyin) o‘z iqtisodiy geografik o‘rnini har tomonlama yaxshilaydi.

Shaharlarning iqtisodiy geografik o'rnini ularning hududiy mehnat taqsimotidagi o'rniga, ixtisosiga ta'sir ko'rsatadi. N. N. Baranskiy har bir shahar o'zi joylashgan iqtisodiy rayonning xarakterli belgilarini ko'zgudagidek ko'rsatib turadi degan edi. Haqiqatan ham har bir iqtisodiy rayonda o'sha rayonning ixtisosi bilan bog'liq bo'lgan shaharlarning ma'lum ishlab chiqarish tiplari rivojlangan.

N. N. Baranskiy shaharlarning iqtisodiy-geografik o'rnini o'rganishda ularning quyidagi o'rinlarga ajratib ko'rsatadi:

1. Shaharlarning mikrogeografik o'rnini
2. Shaharlarning mezogeografik o'rnini
3. Shaharlarning makrogeografik o'rnini

Shaharlarning mikrogeografik o'rnini shaharning yaqin atrofga nisbatan tutgan o'rnini bo'lib, bunday shaharlar kichik hududlarning (tuman, viloyat) iqtisodiy ijtimoiy rivojlanishida ahamiyatlidir.

Mezogeografik o'rin deganda shaharlarning mamlakat, mintaqa miqyosida iqtisodiy ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi tushuniladi.

Makrogeografik o'rin esa shaharlarning qit'a yoki hatto dunyo miqyosida ta'sir doirasiga ega ekanligini ta'kidlaydi.

II.2 Urbanizatsiya jarayonining hududiy tafovutlari va sabablari

Aholi punktlarining shakllanishiga tabiiy sharoitning turli omillari doimiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan holda, joyning relief xususiyatlari alohida belgilovchi omil ekanligi e'tirof etilishi lozim. Chunki har qanday iqlim, yoki tabiiy resurslar salohiyatiga ega hududlarda ham kishilar muqim yashashga moslashadilar va muvofiq xo'jalik tizimini yaratadilar. Ammo joyning reliefi aholi punktlarining shakli, hududiy rivojlanishi va rejasiga bevosita ta'sir etadi, hamda bu yerda yashovchi kishilarning hayot tarzini ham belgilaydi. Shunga ko'ra yer yuzidagi mamlakatlarning tog' va tekislik mintaqalarida bunyod qilgan shahar va qishloq aholi punktlarini geografik jihatdan o'rganish maqsadga muvofiq ishdir. Yuqorida ta'kidlanagidek aholining hududiy joylashuviga balandlik mintaqalarining ta'siri kuchli. Bundan tashqari dengiz bo'yidan uzoqlashish omili ham bor, lekin har qanday dengiz qirg'og'iga yaqin joyda aholi joylashishi uchun qulay joylar mavjud emas. Bu holat ham aynan dengiz qirg'og'ining relief xususiyatiga bog'liqdir.

Yer yuzida tekisliklar aholi zich yashaydigan asosiy mintaqalardir. Dengiz sathidan

balandlik ortib borgani sayin aholi va yashash hududlari siyraklashib boradi. Lekin shunday hududlar ham borki tog' mintaqalari odamlar uchun asosiy yashash hududidir. Tog'li o'lkalarda joylashgan mamlakatlar barcha qit'alarda ham bor, shu bilan birga qit'alardagi tog'li mintaqalar, aholi yashashi uchun qulayligi jihatdan bir-biridan farq qiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, aholi joylashuvi va aholi punktlarining shakllanishi turli geografik omillar, xususan tabiiy sharoit va iqtisodiy – ijtimoiy rivojlanish salohiyati asosiy ta'sir ko'rsatadi. Dunyo aholisining zich joylashgan hududlarida shaharlarning miqdor va sifat darajasida o'sishi XX asrda keng avj oldi va urbanizatsiya jarayonini jadallashtirib yubordi. Turli tabiiy sharoitga ega hududlarda o'ziga xos ravishda shaharlarning hududiy kengayish tamoyillari hosil bo'ldi.

Avvalo urbanizatsiya jarayoni va uning hududlar bo'yicha rivojlanish mezonlari haqida umumiy tushuncha hosil qilish maqsadga muvofiqdir. SHu asnoda tabiiy sharoit omillarining yirik Shaharlarga ta'sirini urbanizatsiya jarayonida sezilarli kechishini ko'rish mumkin.

Aholi punktlarini tadqiq etishda va aholi geografiyasida mamlakatlar urbanizatsiya darajasi va urbanizatsiya miqyosi degan tuushunchalar qabul qilingan. Bugungi kunda regionlar bo'yicha urbanizatsiya darajasi juda notekis. Bu jihatdan Osiyo eng past urbanizatsiya darajasiga ega. Bu hududda urbanizatsiya darajasi 30 % ni tashkil etadi. 2,2 mlrd dan ortiq kishi qishloqlarda yashaydi. Dunyo bo'yicha urbanizatsiya darajasi eng past bo'lgan davlatlar ham Osiyo qit'asidadir. Masalan: Xitoyda 21%, Hindistonda 28%, Indoneziya va Butanda 15%, Nepalda 9%. Urbanizatsiya darajasi Shahar aholisining salmog'i bo'yicha past, o'rta va yuqori darajalarga bo'linadi. Mamlakat aholisining 50% gacha qismi Shaharlarda yashasa, urbanizatsiya darajasi past hisoblanadi. 50 dan 75% gacha o'rta, 75% dan yuqori bo'lsa, yuqori darajali urbanizatsiya hisoblanadi.

**Jahon urbanizatsiyasi asosiy parametrlarining o'zgarishi
1950-2010yy.(N.A.Sluka bo'yicha, 2000 y)**

5-jadval

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	1950	1970	1990	2000	2010
Dunyo aholisining umumiy soni (mln. kishi.), shu jumladan:	2524	3702	5282	6091	6890
Shahar aholisi	750	1357	2279	2890	3586
Qishloq aholisi	1774	2345	3003	3201	3304

Shahar aholisi ulushi %	29,2	36,6	43,1	47,4	52,0
Yirik Shaharlar aholisi ulushi:					
Shahar aholisi ichida %	26,4	32,4	34,7	37,6	40,1
Barcha aholi ichida %	7,7	11,9	14,9	17,8	20,8
Yillik o'rtacha o'sish:					
Shahar aholisi %	3,0	2,6	2,4	2,2	2,0
Qishloq aholisi %	1,2	1,6	0,7	0,4	0,1
Aholi gavjumligi bo'yicha aglomeratsiyalar soni:					
500 ming kishidan ortiq.	185	340	577	737	871
1 mln. kishi.	83	165	282	372	474
“Millioner shaharlar”ning o'rtacha gavjumligi, mln. k.	2,4	2,7	2,8	2,9	3,0

Jadval www.testing.uz saytidan olib qayta ishlandi

Eng birinchi yirik shaharlar 4 ming yil oldin Mesopotamiya, Nil, Hind, Xuanxe daryolari vodiylarida vujudga kelgan. Shaharlarning vujudga kelishi iqtisodiy taraqqiyot bilan bog'lanadi. Shaharlar hukmdorlar yashovchi hududlar, bosh vazifasi mudofaa bo'lgan qal'alar sifatida shakllangan. Bunday holatda ular strategik jihatdan eng qulay joyda bunyod qilingan. Meksika va Peru hududlarida Kolumbga qadar davrlarda ulkan Shaharlar tsivilizatsiyalari rivojlangan. Qadimiy Amerika va Evrosiyo hududlari bir-biridan butunlay xabarsiz bo'lsada ulardagi Shaharlar sivilizatsiyasi o'z xususiyatlariga ko'ra juda o'xshash bo'lgan.

O'rta asrlarda dunyodagi eng yirik shaharlar Nankin (470 ming kishi) Qohira (450 ming kishi), Vidjvanagar (350 ming kishi), Pekin (320 ming kishi) bo'lgan. Yevropa mintaqasining eng yirik shahri Parij bo'lib uning aholisi 275 ming kishi bo'lgan. Milan va Venetsiya shaharlari undan ikki barobar kichik bo'lib, 19-asrda 870 ming aholisi bilan dunyoning eng yirik shahri bo'lgan London aholisi o'sha vaqtda 50 ming kishidan ortmagan. 18 – asr boshida dunyo

aholisining 10% dan kamrog'i Shaharlarda yashagan. O'rta Arslarda eng katta bo'lgan Shaharlar hozirgacha mavjud, ba'zilari rivojlanishdan to'xtab qolgan va provintsiyalar markaziga aylangan yoki butunlay yo'q bo'lib ketgan. Zamonaviy shaharlar tizimining shakllanishi 19-asrdan boshlanadi. 19-asrning boshida eng yirik shahar sifatida London hisoblanar edi, uning aholisi 865 ming kishi bo'lgan. Yevropada ikkinchi o'rinda Parij (550 ming kishi), uchinchi Neapol(340 ming kishi), ulardan keyin Sankt-PetYerburg (330 ming kishi) va Vena(230 ming kishi) turgan. London va Parij Shaharlari oralig'ida Osiyo Shaharlaridan Pekin, Kanton (800 ming kishi) va Konstantinopol (Istambul) (570 ming kishi) turgan. Aholining shaharlarda to'planib borishi, Shaharlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatining ortib borishi butun jamiyat tarixi davomida ro'y berib borgan. Faqat 19-asr boshidagina bu jarayonning tezlashishi kuzatildi. 1800 va 1900 yillar oralig'ida yer yuzi aholisi 1,7 martaga ko'paygani holda, Shahar aholisining soni 4,4 martaga ko'paydi, bu raqamlar XX asrda muvofiq ravishda 3,7 va 13,3 martani tashkil etadi.

Zamonaviy yirik shaharlarning iqtisodiy, siyosiy va savdo markazlari sifatida rivojlanishi manufaktura va fabrika ishlab chiqarishining paydo bo'lishi bilan bog'lab izohlanadi. Shaharlarda aholining ko'p to'planishi energetikaning taraqqiyoti natijasida amalga oshdi, bu avvalo ko'mirni, keyinchalik neftni qazib olish, tashish va foydalanish texnologiyasining takomillashuvi bilan bog'liqdir. Sanoat inqilobi davrida shaharlarning eng muhim funktsiyalari tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish, boshqaruv va rayonlararo tovar ayirboshlash bo'lib qoldi.

Urbanizatsiyaning XX asrdagi jadallashuvi juda avj oldi va shaharlar inqilobi degan nom oldi. Shu bilan birga bu jarayonning jamiyatga turli darajadagi ta'siri kuchayib, bu hodisani tadqiq qilishning usullarini chuqurlashuviga olib keldi.

Shaharlar inqilobining birinchi 20 yilida ya'ni 1950-1970 yillar mobaynida shahar aholisining tabiiy o'sishi butun insoniyat tarixidagi shaharlar aholisining sonidan br oz kam edi. Bu o'sish 83,4% ni tashkil etadi. Undan keyingi 20 yil ichida shahar aholisining ulushi yana 68,7% ga o'sdi. 1950 yilda 1990 yilgacha bo'lgan davrda shahar aholisining salmog'i 3,1 baravarga ko'paydi va 21-asrning birinchi 10 yilligida shu tarzda saqlanib turdi. Yuqorida ta'kidlanganidek urbanizatsiyaning yuqori darajasi Yevropaning barcha mamlklari, AQSH, Kanada, Yaponiya, Avstraliya va Yangi Zelandiyaga xosdir.

XX asrning ikkinchi yarmida jahon urbanizatsiyasida rivojlanayotgan davlatlar muhim rol o'ynay boshladi. 1990 yilda ularda dunyo shahar aholisining 61,4% i yashayotgan edi. (1950 yilda bu 38,7% ni tashkil etgan). 2025 yilga kelib bashoratlarga ko'ra bu ko'rsatkich 80% dan ortiqni tashkil etadi. Rivojlanayotgan davlatlarda shaharlarningko'payib borishi, ularning o'ziga xos jihatlarini hisobga olganda jahon urbanizatsiyasining sifatiy rivojlanishini sekinlashtiradi va

hududiy tafovutlanishini keskinlashtiradi. Chunki bu mamlakatlardagi ko'pchilik shahar aholisi yaqinda qishloqlardan ko'chib kelgan bo'ladi va ular yashash tarzi bilan shahar turmush tarzini qishloqlashtiradi. Qisqa muddat ichida qishloqlardan shaharlarga aholining katta qismi ko'chib o'tganda bu vaziyatning yuzaga kelishi tabiiy holdir.

Yuqoridagi fikrlar asosan yaqin yillarda shahar aholisining kamligi bilan ajralib turgan mamlakatlarga tegishlidir. Bunday mamlakatlarga Nigeriya misol bo'ladi. Uning poytaxti Lagos 1950-1990 yillar mobaynida 27 baravar kattalashdi va dunyoning eng yirik 8 ta aglomeratsiyalari qatorda kiradi. Shuningdek bunday xususiyatga ega bo'lgan mamlakatlarga Turkiya, Eron, Xitoy, Hindiston, Rossiya, Braziliya, Meksika, Indoneziya kabilar kiradi. Bu jarayonning boshqa qutbida eng urbanizatsiyalashgan mintaqalar Shimoliy AmYerika, G'arbiy Yevropa va Yaponiya turadi.

Qishloqlar aholisining shaharlarga ko'chib o'tishi va iqtisodiy rivojlanishdagi bir qancha muvaffaqiyatlar ba'zi mamlakatlarni yuqori darajadagi urbanizatsiyalashgan davlatlarga aylantirib qo'ydi, masalan XX asrning 90-yillari mobaynida Venesuelada urbanizatsiya darajasi 92,9% ga chiqdi, xuddi shunday tendentsiyani Urugvay (90,3%), Argentina (87,5%), Chili (85,9%), Braziliya (78,7%), BAA (84%), Saudiya Arabistoni (80,2%), Iroq (75,6%), Liviya (86%), Tunis (59%)da kuzatamiz.

XX asrni haqli ravishda urbanizatsiya asri deb atash mumkin. 1900 yilda dunyo Shaharlarida butun dunyo aholisining 14% i yashagan va 12 ta millioner shaharlar mavjud edi. XXI asr arafasida shahar aholisi 45% ga etdi, 2,5 ming atrofida aholisi 100 mingdan ortiq yirik shaharlar, 107 ta millioner shaharlar hisobga olingan.

Urbanizatsiya jarayoni dunyoda xo'jalik tizimining va ishlab chiqarish munosabatlarining o'zgarishi bilan jadalashdi. Ishlab chiqarishning kontsentratsiyalashuvi, differentsiatsiyalashuvi, hududiy tashkil etilishi va texnologik taraqqiyot bu jarayonga turkati beruvchi asosiy omillardir. Urbanizatsiya jarayoni shahar aholisining miqdoriy o'sishi bilan xarakterli bo'lib, bu holat XX asrgacha ancha sust va barqarorligi bilan ajralib turadi. 19-asr boshida dunyo shahar aholisi 29,3 mln kishini tashkil etgan, bu dunyo aholisining 3% ni tashkil etardi. 1900 yilga kelib bu ko'rsatkich 224,4 mln kishini va 14% ni tashkil etdi. XX asr davomida jarayonning o'sishi quyidagi raqamlarda aks etadi. 1950 yilda Shahar aholisi 729 mln kishi, muvofiq ravishda 28,8%, 1980 yilda 1821 mln kishi va 41% ni, 1990 yilda 2261 mln kishi va 41% ni tashkil etdi.

2-diagramma



diagramma <http://en.wikipedia.org> saytidan olib qayta ishlandi

Urbanizatsiya jarayonining umumiy xususiyatlari barcha mamlakatlarda birday namoyon bo'ladi. Bu:

- Shahar aholisining tez ko'payishi. Bu ayniqsa rivojlanayotshgan davlatlarda sezilari bo'ladi, chunki bu mamlakatlarda aholining qishloqdan shaharga ko'chib kelishi nazorat qilinmaydi. 1950 yildan buyon dunyoda shahar aholisi 4.37 martaga ko'paydi.
- Aholi va xo'jalik tarmoqlarining yirik shaharlarda to'planishi, bunda shaharlarning ko'p funktsiyali ekanligi, ayniqsa noishlab chiqarish sohalarining rivojlanishiga imkoniyatning kengligi va rivojlangan infrastrukturaga, axborot almashinuvining tezligi sabab bo'ladi. Hozirgi kunda 30 dan ortiq shaharlarda 5 mln dan ko'p aholi yashaydi.
- Shaharlar hududining kengayishi. Bu yirik shaharlar atrofida yo'ldosh shaharlarning paydo bo'lishi bilan kechadi. Bunday ko'rinish shahar aglomeratsiyalari deyiladi. Dunyodagi eng yirik shahar aglomeratsiyalari Mexiko, Nyu-York, Tokio va San-Paulu shaharlari atrofida shakllangan.

3-diagramma




diagramma <http://en.wikipedia.org> saytidan olib qayta ishlandi

Urbanizatsiya shartli darajalari quyidagicha qabul qilingan:

- Urbanizatsiyaning past darajasi -20%
- Urbanizatsiyaning oʻrtacha darajasi -20% dan 50% gacha
- Urbanizatsiyaning yuqori darajasi – 50% dn 72% gacha
- Urbanizatsiyaning yuksak darajasi - 72% dan yuqori.

Dunyodagi eng past urbanizatsiya darajasi Gʻarbiy va SHarqiy Afrika, Madagaskar va baʼzi Osiyo mamlakatlarida kuzatiladi.

Oʻrtacha urbanizatsiyalashgan mintaqalar Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasidagi Boliviya davlati.

Yuqori urbanizatsiyalashgan mintaqalar MDH, Yevropa, SHimoliy Amerika, Janubiy Amerika, Avstraliya va JAR hududlaridir. Yer yuzida 107 ta millioner shahar bor. Baʼzi manbalarda esa ularning soni 300 dan ortiq deb koʻrsatiladi. Lekin bu hisobda shahar atrofidagi aholi ham nazarda tutiladi. Aslida shahar aholisining miqdori ayni shahar yuridik hududida yashovchilar bilan chegaralanishi lozim. SHunga koʻra 107 ta millioner shahar mavjudligi maʼlumot sifatida qabul qilindi. Ularning 28 tasi gʻarbiy yarim sharda, 79 tasi sharqiy yarim sharda, 96 tasi shimoliy yarim sharda, 11 tasi janubiy yarim sharda joylashgan. 36 ta millioner shahar poytaxt maqomiga ega.

Urbanizatsiya jarayonining hududiy taqsimoti hozirgi kunda juda rang-barangdir. Dunyo urbanizatsiya xaritasida uchta asosiy mintaqa alohida ajralib turadi. Bular AQSH, Yaponiya va

G'arbiy Yevropadir. Bu mintaqalarni uzluksiz joylashgan aholisi 1 milliondan ortiq yirik aholi punktlari to'ldirib turadi. So'ngi 20 yil davomida dunyodagi bu manzarani SHarqiy, va Janubiy Osiyodagi yirik shahar aglomeratsiyalarining paydo bo'lishi o'zgartirmoqda. SHuningdek Lotin Amerikasi va Afrika mintaqalarida ham yirik shaharlar ko'payib bormoqda. Bu shahar aholisining ko'payishi bilan izohlanadi. Dunyo shahar aholisining yarmiga yaqini Osiyoda istiqomat qiladi (1950 yilda 1/3 qismi edi), 20% dan ortig'i Yevropada yashaydi. XXI asr ostonasida jahon urbanizatsiya jarayoni janubi-sharqiy Osiyo yo'nalishida kuchaya boshladi. Bu XX asrning ikkinchi yarmida Yaponiya, Xitoy, Hindiston va qator sharqiy va janubiy Osiyo mamlakatlarida shaharlar miqdorining ko'payishi bilan izohlanadi.

Urbanizatsiya jarayoni hozirgi kunda shahar aholisining juda tezlik bilan ko'payib borishida namoyon bo'lmoqda. BMT mutaxassislari aholisi 8 mln ortgan shaharlarni megashaharlar (mega-yunon tilida ulkan degan ma'noni beradi). 1950 yilda bunday shaharlar sirasiga faqat London va Nyu-York kirgan bo'lsa, 1960 yilda ular safiga Tokio va SHanxay shaharlari qo'shildi, 1970 yilda ularning soni 11 taga etdi ulardan 5 tasi rivojlanayotgan mamlakatlarda (Pekin, San-paulu, Buenos Ayres, Rio-de Janeyro) edi, 1994 yil o'rtalarida 22 ta megashahardan 16 tasi rivojlanayotgan davlatlar hududida shakllandi, 2015 yilda 33 taga etishi taxmin qilinadi, shu bilan birga ulardan 27 tasi rivojlanayotgan davlatlarda bo'lishi, shundan 21 tasi Osiyo qit'asiga tegishli bo'lishi taxmin qilinadi. Hozirgi kunda 30 dan ortiq shaharlarning aholisi 5 mln dan ko'p ekanligi qayd qilindi.

Megashaharlar sonining ko'payishi, (1970-2015 yy)
6-jadval

Yillar mintaqalar	1970	1994	2000	2015(bashorat)
Dunyo bo'yicha	11	22	25	33
Rivojlanayotgan davlatlar	5	16	19	27
Osiyo (Yaponiyadan tashqari)	2	10	12	19
Lotin AmYerikasi	3	4	5	5
Rivojlangan davlatlar	6	6	6	6
Yevropa	2	2	2	2
SHimoliy AmYerika	2	2	2	2

Yaponiya	2	2	2	2
----------	---	---	---	---

Manba: Qayumov A. Yakubov O'. Abdullayev A. "Aholi geografiyasi va demografiya asoslari" T.: 2011

Yuksak rivojlangan davlatlarda o'ziga xos yuqori urbanizatsiyalashgan mintaqalar shakllandi. Masalan Tokio-Osaka oralig'ida 130 ta Shahar joylashgan va mamlakat hududining 1/9 qismini egallaydi. Bu hududda mamlakat aholisining deyarli yarmi 60 mln kishi yashaydi. Ishlab chiqarishning 4/5 qismi shu hududda joylashgan va Yaponiya yalpi ichki mahsulotining 90% i ishlab chiqariladi.

Yuqori uranizatsiyalashgan, shahar aholisining ulushi 80% dan ortiq bo'lgan mamlakatlar ichida Yevropada – Buyuk Britaniya, SHvetsiya, Germaniya, Daniya, Frantsiya, Niderlandiya; SHimoliy Amerikada AQSH va Kanada; Avstraliya va Okeaniyada Avstraliya va Yangi Zelandiya; Osiyoda Yaponiya va Isroil ajralib turadi.

Iqtisodiy rivojlangan mintaqalarda shahar aholisi ulushining 70% dan ortiqligi Yevropa, SHimoliy Amerika va Avstraliya kuzatiladi, bu mintaqalarda shaharlar zamonaviy ishlab chiqarish markazlari sifatida rivojlangan. Shahar aholisi bu hududlarda XX asr boshida ko'paya boshlagan. So'nggi 30 yil davomida bu mintaqalarning dunyo bo'yicha shahar aholisidagi ulushi 45% dan 26% ga kamaydi. Ayni vaqtda boshqa hududlarda shaharliklar soni 400 mln.dan 1.6 mlrd kishiga oshdi. So'nggi 10 yilliklarda iqtisodiy rivojlangan mintaqalarda o'ziga xos kontrurbanizatsiya (teskari urbanizatsiya) jarayoni – aholining yirik shaharlardan chetga ko'chishi kuzatilmoqda.

Lotin Amerikasida 65% dan ortiq aholi shaharlarda yashaydi, Mexiko va San-Paulu kabi dunyodagi eng yirik aglomeratsiyalar mavjud.

Urbanizatsiya jadalligi shahar aholisining ulushi nisbatan kam bo'lgan mintaqalarda kuzatilmoqda. Osiyo qit'asining urbanizatsiya darajasi 34% ni tashkil etadi. Bu mintaaqda urbanizatsiya jarayoni juda tez kechmoqda, shunday bo'lsada, bu mintaqadagi shahar aholisining ulushi 29% ni tashkil etadi. SHarqiy Osiyo mamlakatlari – Yaponiya, Tayvan, KXDR va Koreya Respublikalarida shahar aholisining ulushi 70% dan ortiq. Xitoyda shahar aholisining ulushi 32% ni tashkil etadi, mamlakatda migratsiya juda qat'iy nazorat qilinadi.

Urbanizatsiyaning eng past darajasi va eng yuqori jadalligi Afrika qit'asida namoyon bo'lmoqda.

Urbanizatsiyaning Osiyo mintaqasidagi asosiy jihati aholisi 5 mln dan ortiq yirik shahar aglomeratsiyalarining shakllanishida namoyon bo'ladi. O'nlab yirik shaharlarning qo'shni joylashganligi va ularning kengayishi natijasida bir-biriga qo'shilib borishi, bu holat ayniqsa yirik avto va temir yo'l magistrallari atrofida joylashgan

shaharlarda kuzatiladi, cho‘ziq shakldagi urbanizatsiyalashgan hududning shakllanishiga sabab bo‘ladi. 1950 yillarda J. Gotmann AQSH da shunday hodisani Atlantika okeani qirg‘oqbo‘yida tadqiq qildi. Bu hududning uzunligi 1000 km, eni 200 km bo‘lib, bir-biriga qo‘shilib borayotgan aglomeratsiyalar – Boston, Nyu-York, Filadelfiya, Baltimor, Vashington va yana 40 ta aglomeratsiyadan tashkil topgan edi. Uning maydoni 170 ming km². J. Gotmann bu hududga Megalopolis (Megapol – qadimgi Yunonistondagi shahar davlatlar ittifoqidagi eng yirik shahar nomi) deb nom berdi va bu nom keyinchalik turdosh otga aylandi. 1961 yilda J. Gotmann “Megalopolis” deb atalgan monografiyasini chop ettirdi. Bu hududda 50 mln dan ortiq aholi yashaydi va sanoat mahsulotlarining ¼ qismi ishlab chiqariladi. Shu tariqa AQSH hududida bir qancha megalopolislarning shakllanganligi ta’kidlandi. Chikago-Pittsburg Buyuk ko‘llarning janubiy qirg‘oqbo‘yida shakllandi. Chikago, Detroyt, Klivlend, Pittsburg shaharlarini va 35 ta shaharni birlashtiruvchi bu hududning maydoni 160 ming km²ni, aholi soni 35 mln dan ortiqni tashkil etadi. Eng yosh megalopolis San-San, San-Diegodan ulkan Kaliforniya vodiysi bo‘ylab Los-Anjelesgacha va undan San-Frantsiskogacha cho‘zilgan, unda 20 mln dan ortiq kishi istiqomat qiladi.

Kanadada aholi joylashuvining muhim zvenosini Kvebekdan Vindzorgacha cho‘zilgan urbanizatsiyalashgan zona yoki o‘q tashkil etadi. Uning uzunligi 1000 km dan ortiq bo‘lib, eni 300 km, uning hududida mamlakat aholisining 55% yashaydi, sanoat tarmoqlarida band mehnat resurslarining 73% to‘plangan.

Aholi soni bo‘yicha eng katta megalopolis Tokaydo (70 mln dan ortiq kishi) Yaponiyaning Tinch okean qirg‘oqbo‘yida shakllangan. Bu yuqori darajada urbanizatsiyalashgan hudud bir necha 100 km ga cho‘zilgan va Tokio, Iokogama, Kavasaki, Nagoya, Kioto, Osaka, Kobe va boshqa hammasi bo‘lib 25 ta Shaharlarni birlashtirgan hududda mamlakat aholisining 60% dan ortig‘i yashaydi va sanoat mahsulotlarining 2/3 qismi ishlab chiqariladi. Megalopolislar G‘arbiy Yevropada ham shakllanmoqda. Ular AQSH yoki Yaponiyadagi megalopolislardan ko‘lami, aholi soni va maydoni jihatidan kichik. Maydoni jihatidan London, Birmingem, Manchester, Liverpul va boshqa shaharlarni birlashtiruvchi Angliya megalopolisi, Reyn (Niderlandiyadagi Ranstadt, GFR dagi Reyn-Rur, Reyn-Mayn va boshqa aglomeratsiyalarni birlashtiradi) megalopolislari ajralib turadi. Ularning har biri 30 tagacha aglomeratsiyalarni birlashtiradi va maydoni 50 ming km², aholi soni 30-35 mln kishi ni tashkil etadi. Megalopolislarning shakllanishi bu mintaqada yirik aglomeratsiyalarning rivojlanishi bilan bog‘liq. London aglomeratsiyasining aholisi 12 mln kishin, Parijniki 10 mln kshi, Quyi Reyn-Rur aglomeratsiyasining aholi soni 11 mln kishini tashkil etadi. Mamlakatlararo megalopolislarning shakllanishi qiziqarli hoisadir. SHimoli-G‘arbiy Yevropada shunday megalopolis shakllangan. Bu megalopolis 5 ta mamlakatning urbanizatsiyalashgan,

maydoni 230 ming km², aholisi 85 mln kishi, aholi zichligi 350 kishini tashkil etuvchi hududini birlashtiradi. Bu hududlar SHimoli-SHarqiy Angliya, Ranstatd, Reyn-Rur, Belgiya-frantsiya hududi (Antverpen, Bryussel, Lill shaharlari) va Parijni qamrab oladi. Ayni vaqtda jahon mintaqalarida va mamlakatlarida urbanizatsiya turli darajaga egadir. Yevropa mamlakatlarida urbanizatsiyaning past darajasi umuman kuzatilmaydi.

Urbanizatsiyaning eng yuqori darajasi asosan mitti davlatlarga tegishli bo'lib, 90% lik ko'rsatkichga ega katta maydonga ega davlatlardan Belgiya va Buyuk Britaniyani ko'rsatish mumkin. Mitti davlatlarning o'ziga xosligini hisobga olinganda, Belgiya qirolligi qit'adagi eng yuqori urbanizatsiya darajasiga ega mamlakatdir 98%, Buyuk Britaniya va Niderlandiyada bu ko'rsatkich 90%, ulardan keyingi o'rinlarda Daniya 85%, SHvetsiya 83%, Germaniya 88% ni tashkil etadi. Eng past urbanizatsiya darajasi Moldovada 42% ni tashkil etadi.

Osiyo qit'asida eng yuqori urbanizatsiya ko'rsatkichlari Quvayt 96%, Bahrayn, Qatar 93%, Isroil 92%, Livan 91% va Singapur 100% larda qayd etilgan. Eng past ko'rsatkich Butan, SHarqiy Timorda 8%, Nepal 13% ni tashkil etadi.

Afrika mintaqasida eng yuqori ko'rsatkich Liviyada 88% bo'lsa Ruanda eng past ko'rsatkich 7% ga ega.

Amerika qit'asida eng yuqori ko'rsatkichlar Urugvay (93%), Argentina va Venesuela (88%) ga tegishli, eng past ko'rsatkich Gaiti, Gayana kabi (38%) davlatlarga tegishli.

Avstraliya qit'asida Avstraliya (92%) va YAngi Zelandiyada (86%) eng yuqori ko'rsatkichlar bo'lgani holda boshqa davlatlar deyarli urbanizatsiyalashmagan.

II.3 Urbanizatsiya jarayonining ijtimoiy –iqtisodiy oqibatlari.

Butun dunyo mamlakatlarida urbanizatsiyaning rivojlanish tendentsiyasi XIX asrning 2-yarmidan boshlab sanoat taraqqiyotiga mos ravishda shakllangan. Demak, zamonaviy shahar tushunchasi o'sha davrdagi eng rivojlangan davlatlar bo'lgan Yevropa davlatlari shaharlari darajasi bilan belgilanib kelingan. Asta-sekin shaharlarning qiyofasidagi milliy regional xususiyatlar yo'qolib bordi. Aholi punktlarining vujudga kelishida asosiy ta'sirga ega bo'lgan tabiiy geografik omillar ko'p hollarda hisobga olinmaganligi, xususan seysmik aktiv zonalar, shamollar yo'nalishi, yer qatlamlari strukturasi va h.k kabilarni o'rganmasdan shaharlar qurish, shaharlarda tabiiy ofatlardan qurbon bo'lganlar sonining ortiqcligi, aholi sog'ligining yomonlashuvi kabi oqibatlarga olib keldi. Zamonaviy shaharlarni barpo qilishdagi bunday xatolar ayni vaqtda ham davom etmoqda. Urbanizatsiyaning shakllanishi uchun kuchli ta'sir ko'rsatgan tabiiy geografik omillar sifatida hududning resurslar zahirasi, rekreatsion hududlarda joylashganligi kabilar tan olanadi. Bunday omillarga suyangani holda shakllangan urbanizatsiya o'ziga xos yo'nalish va oqibatlarga egadir. Tabiiy resurslar asosida shakllangan urbanizatsiya ushbu resurslarni qayta ishlash va mahsulotlar yaratish jarayonida jaadal rivojlanadi, buning

natijasida ko'plab ijtimoiy masalalarga e'tibor berilmaydi va turli echimi qiyin bo'lgan muammolar kelib chiqishi mumkin. Rekreatsion hududlarda shakllangan urbanizatsiya esa ko'p hollarda mavsumiy xarakterda rivojlanib boradi va ko'plab ijobiy xususiyatlarni kasb etadi. Uning rivojlanishida vujudga kelgan muammolar esa mahalliy ma'muriyat tomonidan bartaraf etilishi mumkin.

Zamonaviy shaharlardagi iqtisodiy omillar aynan sanoat va xalqaro munosabatlarning yuqori darajada rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, xom-ashyolarni qayta ishlash, yangi turdagi mahsulotlarni yaratish, transportning rivojlanishi, demografik rivojlanish kabilardir.

Hozirgi zamon urbanizatsiyasining jadal rivojlanishi natijasida quyidagi xarakterdagi muammolar vujudga keladi:

1. **Demografik muammo** – shaharlarda ishlab chiqarishning rivojlanishi, turli yo'nalishdagi tarmoqlarning shakllanishi shaharga ko'chib keluvchilar miqdorining oshishiga sabab bo'ladi. Shahar aholisi tez ko'paya boradi, shaharga ish izlab kelgan kishilar turar joy muammosini vujudga keltirishadi va shaharning turli hududlarida iqtisodiy jihatdan nochor aholining alohida yashash rayonlari paydo bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlardagi yirik Shaharlarda bunday rayonlar Shaharlarning asosiy hududlaridan ham yiriklashuvi kuzatiladi. Natijada qashshoq urabnizatsiya deb ataladigan holat yuzaga keladi.
2. **Ijtimoiy psixologik muammolar** – Shahar turmush tarzining bir tomonlama rivojlanib ketishi natijasida shahar aholisining turli qatlamlari vujudga keladi. Turli sohalarda faoliyat ko'rsatuvchi shaharliklarning turmush tarzlarida o'ziga xos tafovutlar vujudga kelishi mumkin. Bu tafovutlar shahar iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotini boshqarishda noto'g'ri yo'l tutilishi oqibatida yuzaga keladi. Bundan tashqari shaharga tashqaridan ko'plab kishilarning ko'chib kelishi va noqonuniy joylashish hamda faoliyat ko'rsatish orqali ham shakllanadi. Bunday muammolarning o'tkirligi ayniqsa yirik Shaharlarda sezilarli va dolzarbdir.
3. **Ekologik muammolar** – Bu muammolar eng keng qamrovga ega bo'lib, shahar obodonchiligi, shahar transporti, aholining gigiena sanitariya qoidalariga to'liq rioya qilishi, aholi sog'ligini saqlash muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarining shahar muhitiga ta'siri kabilarni o'z ichiga oladi.

Urbanizatsiya shahar aholisining mamlakat aholisiga nisbati bo'lib, mamlakatlar urbanizatsiya darajasini qiyoslaganda mamlakatlar aholisi sonidagi farqlarga ham e'tibor beriladi.

Bu jarayon iqtisodiy – ijtimoiy, demografik, siyosiy, etnomadaniy va geografik tarkibga ega bo'lgan bu hodisa jamiyatning hududiy tashkil etilishidagi o'zgarishlarni o'zida namoyon etadi. Shu bilan birga ijtimoiy mehnat taqsimotining hududiy-geografik taqsimoti hosilasi sifatida talqin qilinadi. XX asr boshdanoq yirik Shaharlar salmog'ining jadal o'sishi bu borada tadqiqotlar va bashoratlar qilinishiga sabab bo'lgan. A Babel yirik shaharlar bora-bora inqirozga uchrashini aytgan, G. Uels ularning kelajakda butunlay yo'q bo'lib ketilishini bashorat qilgan edi. mana 100 yildirki urbanizatsiya jarayoni jadal o'sib bormoqda, borgan sari katta hududlarni egallamoqda va shu bilan birga jarayon ibtidosidagidek uning yo'lida turli muammolar kelib chiqmoqda. Bunday muammolar:

1. Rivojlanayotgan davlatlarda urbanizatsiya juda tezkor va boshqarib bo'lmaydigan xarakter kasb etmoqda;
2. Shaharlarning juda tez kattalashuvi, shunday shaharlarda aholining turmush darajasi past qismi yashaydigan alohida hududlarni vujudga keltiradi. Bunday hududlar antisanitariya sharoitini yuzaga keltiradi. Bunday hududlar frantsuz tilida so'zlashuvchi Afrika davlatlarida "bidonvillar", Braziliyada "favel", Turkiyada "gedjekondu" deb ataladi.
3. Sanoat korxonalari va avtomobillarning ko'pligi yirik shaharlarda ekologik vaziyatni keskinlashtiradi;
4. Kelajakda shaharlarni ko'p funktsiyali holatga keltirish zarurati tug'iladi.

Urbanizatsiya jarayonining tabiiy muhitga ta'siri alohida ahamiyatga egadir. Shaharlar aholi sonining ko'pligi, sanoat korxonalari, transport tizimining rivojlanganligi jihatidan qaralganda tabiiy resurslarning barcha turlarini iste'mol qiluvchi ob'ektlardir va shu bilan atrof-muhitning ifloslanishida katta o'rin tutadi. Tabiiy muhitga bo'lgan yuklama nafaqat shaharlarning o'zida, balki uning atroflarida ham kuchaya boradi.

Shahar hududining kengayishi qimmatli ekin maydonlarining qisqarishiga va shu bilan oziq-ovqat muammosining chuqurlashuviga sabab bo'ladi. Sahroi Kabir janubdagi qator Afrika davlatlaridagi shaharlar o'nlab kilometr hosilsiz erlar bilan o'ralgan. "Bedlend" deb ataluvchi bu hududlar shahar aholisi tomonidan daraxtlarning o'tin uchun kesib olinishi va yaylovlarda chorvachilik bilan shug'ullanishi oqibatidir. Yirik shaharlar oziq-ovqat mahsulotlariga uzluksiz ehtiyoj sezadi va ba'zi hududlarda ular atrofidagi qishloq xo'jalik maydonlari bu ehtiyojlarni qondira olmaydi.

Zamonaviy shaharlar muammolarining eng muhimlari shaharliklar va ishlab chiqarish korxonalarini suv bilan ta'sinlash, hamda oqova suvlarni chiqarishdir. Axlatlarni shahar hududidan olib chiqish va yo'q qilish ham dolzarb va uzluksiz muammolardir. SHuningdek,

yirik shaharlarning tabiiy muhitga ta'siri ulkn hududlarning gidrologik rejimi, atmosferasi va iqlimi bilan cheklanmasdan binolar va inshootlarning og'irligi bilan litosferaga ham ta'sir ko'rsatib, yer qatlamlari strukturasining o'zgarishiga ham sabab bo'lishi mumkin.

Shaharlarning o'zida alohida mikroiqlim hosil bo'ladi. Inshootlar shamollar tezligini pasaytiradi, havoning turib qolishi zaharli sanoat gazlarining to'planishiga olib keladi. Smoglar – tutun, chang va tumanlar aralashmasi quyosh nurin to'sadi va kishilarning turli kasalliklarga chalinishiga sabab bo'ladi. Shaharlardagi havo harorati atrofdagi haroratdan doimo yuqori bo'ladi, bu holat avtomobil yoqilg'isining yonishi, binolarni istish tizimlarining ishi, shahardagi barcha ob'ektlardan qaytgan radiatsiya issiqligining oqibatidir. Mo'tadil kengliklardagi shahrlarda qor ilgariroq eriydi, o'simliklar erta o'sib chiqadi. Shaharlarda qushlar ko'pinchajanubga uchib ketmaydi, shu bilan shaharlarga xos fauna va flora hosil bo'ladi.

Urbanizatsiya bir tomondan kishilar yashash tarzini qulayliklar bilan ta'minlaydi, boshqa tomondan tabiiy tizimlarni sun'iy shakli bilan almashtiradi, atrof-muhitning ifloslanishiga sabab bo'ladi, inson organizmiga kimyoviy, fizikaviy va psixologik yuklamani oshiradi.

Yirik shahar deyarli barcha tabiat komponentlarini, atmosfera, o'simlik, tuproq, relef, gidrografik tizim, er osti suvlari, grunt va hatto iqlimni o'zgartirishga qodirdir.

Urbanizatsiyaning dolzarb muammolarini va hududiy shakllanishini va mamlakatlar xo'jaligining hududiy tuzilmalarini takomillashtirishni kompleks iqtisodiy geografik tadqiq qilish orqal urbanizatsiya jarayonini barqarorlashtirish yo'lini topish mumkin.

HULOSA

Yer yuzasida aholi juda notekis joylashgan. Zichligi ming kishidan ortiq bo'lgan gavjum hududlardan tashqari, odam umuman yashamaydigan hududlar ham mavjud.

Aholi joylashuvini tavsiflashda asosiy xususiyatlar haqida aniq tasavvur hosil qilishda ikki ko'rsatkich – aholi zichligi va shahar hamda qishloq aholisining tafovuti ajratib ko'rsatiladi.

Aholi zichligi bilan ishlab chiqarishning joylashuvi, ixtisoslashuvi va hududiy mujassamlashuvi, iqtisodiy zichlik o'rtasida ma'lum darajada aloqadorlik mavjud. Jumladan, zichlikning eng yuqori ko'rsatkichlari qayta ishlash sanoati rivojlangan hududlarda, shahar atrofida, qadimdan sug'orma dehqonchilik tarqalgan vohta va vodiylarda, agrosanoat rayonlarida

kuzatiladi. Tabiiyki, bunday hududlarga ishlab chiqarish rivojlanishining intensiv yo'nalishi xosdir. Ayni chog'da ekstensiv xo'jalik tizimiga ega bo'lgan chorvachilik, ayniqsa yaylov chorvachiligi, o'rmonchilik hamda tog'-kon sanoati rayonlarida aholi zichligi ancha past.

Aholi zichligining ko'rsatkichi – bu aholining maydonga nisbatini ifodalovchi matematik hisobigina emas. Unda xo'jalikning umumiy ahvoli va yo'nalishi, u yoki bu tipdagi tabiiy sharoitning kishilarning ishlab chiqarish faoliyati uchun yaroqliligi aks etadi. Industrial rivojlangan mamlakatlarda aholi o'rtacha zichligi shahar aholisi salmog'ining yuqoriligi tufayli yerlardan foydalanishni aks ettirmaydi. Shuning uchun ko'pincha umumiy zichlikdan tashqari, qishloq aholisining zichligi alohida aniqlanadi.

SHahar va qishloq aholisi tafovutlari – har qanday mamlakat yoki rayonning iqtisodiy geografik jihatdan ta'riflashning asosidir. O'tmishda shahar aholisi ham qishloq xo'jaligi bilan bevosita shug'ullangan. Lekin bizning zamonamizda aholining shahar va qishloq o'rtasida taqsimlanishi turli darajada rivojlangan davlatlarda industrial yoki agrar rivojlanish xususiyatini baholashda ahamiyat kasb etadi.

SHaharlar sonining o'sishi, shahar aholisi salmog'ining ortishi, shahar turmush tarzining keng joriy etilishi mamlakatning urbanizatsiyalashuvi deyiladi va ijtimoiy demografik jarayonlarga, birinchi navbatda aholi takror barpo bo'lishi, yosh va jins tarkibi, migratsiya xarakteriga va h.k larga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Urbanizatsiya darajasini aniqlashda “shahar” tushunchasi mamlakatda qay tarzda qabul qilinishiga e'tibor berish kerak bo'ladi.

SHahar va qishloq aholisining turli ko'rsatkichlr bo'yicha tafovutlari mamlakatlarning ijtimoiy madaniy va iqtisodiy munosabatlarining tarixiy shakllanishi bilan bog'liqdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" T.: O'zbekiston, 2008 y.
2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.-T.: O'zbekiston, 2009. 56 b.
3. B. Mirtursunov."Sanoat va q/x, transporti va o'lkashunoslik kursi" (ma'ruzalar matni). Toshkent, 2001 y.
4. Nazarov A. «Ijtimoiy geografiya». T. , Universitet, 2000 y.
5. A. Soliev. "Shaharlar geografiyasi". T. 2000 y.
6. M.R. Bo'rieva. "Demografiya asoslari" (ma'ruzalar matni). T. 2001 y.
7. G. Asanov, M. Nabixonov, I. Safarov. "O'zbekiston iqt. va ijt. geografiyasi" T. O'qituvchi, 1994 y .
8. H. Vahobov, M. Tillaboeva. "Iqtisodiy geografiya asoslari". T. O'qituvchi, 2001 y.
9. Abirqulov Q. "Jahon mamlakatlari iqt. va ijt geografiyasi" .T. 2006 y.
10. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Toshkent 2004 y "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" nashriyoti
11. V. P. Maksakovskiy "Jahonning iqtisodiy ijtimoiy geografiyasi" 10-sinf darsligi. T. "O'qituvchi" 1995 y.
12. Asanov G. Aholi geografiyasi. Toshkent, "O'qituvchi" 1978 y.
13. Asanov G. Sotsial iqtisodiy geografik lug'at. Toshkent, "O'qituvchi" 1990 y.
14. P. Musaev. J. Musaev «O'zbekiston iqtisodiy ijtimoiy geografiyasi» 8-sinf darsligi. T. "O'qituvchi" 2008 y.